**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**
**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

# MALAKAVIY AMALIYOTNI TASHKIL ETISH BO`YICHA

## USLUBIY KO`RSATMA

**5210200 – Psixologiya ta`lim yo`nalishi hamda 5110900- Pedagogika va psixologiya ta`lim yo`nalishi talabalari uchun**

**Buxoro - 2020**

**“Ta`lim muassasalarida malakaviy amaliyotni tashkil etish bo`yicha” uslubiy ko`rsatma. A.Nazarov, O.Avezov. Buxoro, 2020**

**Taqrizchilar:**

**Sh.R. Barotov –** Psixologiya fanlari doktori, profeesor

**E.M.Muxtorov –** Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

*Ushbu uslubiy ko`rsatma Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti Ilmiy Kengashida ko`rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan (Ilmiy Kengashning 2020 yil dagi navbatdan tashqari yig`ilish bayonnomasi).*

# KIRISH

Respublikamiz miqyosida ta`lim va tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biri sifatida e`tirof etilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga ta`lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan ko`nikma, malaka, bilimlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo`lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida yuksalish bilan xarakterlanadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta`lim to`g`risida"gi Qonunni amalga oshirishda mavjud ta`lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o`zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta`lim jarayonining hamma bosqichlarida, uzluksiz ta`lim tizimi, ta`lim muassasalarining hamma shakl va turlarida ilg`or metodik tajribalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Zero, shaxsning ma`naviy yetukligi, bilimdonligi, zehnliligi mana shu muammoni yechish jarayonida namoyon bo`ladi.Agar biz O`zbekiston kelajagi, taqdiriga o`zimizning javobgar ekanligimizni his etsak, har birimiz uning taraqqiyoti vositasi bo`lmish yosh avlodni tarbiyalash masalalarini chuqur egallamog`imiz, yangicha tafakkur asosida yashashni o`z burchimiz deb bilmog`imiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, yosh avlodni to`g`ri tarbiyalash, ularda to`g`ri munosabatni shakllantirish, ularning ruhan tetik shaxs sifatida rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish zarurati bosh maqsadlarimizdan biridir.

Darhaqiqat, psixologiya ta'lim yo'nalishidagi talabalarning malakaviy (o'quv) pedagogik amaliyoti oliy o'quv yurtida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriat yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlsh va mazkur bilim, ko'nikma, malakalarni bevosita ta`lim-tarbiya jarayoniga qo'llash imkoniyatini beradi.

***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 martdagi "Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 176-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarida (bundan buyon matnda OTM deb yuritiladi) tahsil olayotgan talabalar davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv rejasida nazarda tutilgan malakaviy amaliyot bo'yicha o'z bilim va tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlarining noyob iste'dodlarini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida ushbu uslubiy ko'rsatmaga qo'shimchalar kiritildi.***

**O'quv - tanishuv amaliyot:**

Talabalar ixtisoslik bo'yicha mos ilmiy yo'nalishlari hamda foydalanishning zamonaviy ilmiy uslubiy tomonlari hamda umumta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, o'quv jarayonini tashkil qilinishi bilan tanishadilar.

Psixologik faoliyatning nazariy va amaliy asoslari o‘rganishga e’tibor qaratiladi. Davlat va nodavlat psixologik tadqiqot markazlari ishi bilan tanishish. Ishlab chiqarish amaliyoti aynan davlat va nodavlat muassasalarida o‘tkazish. Amaliyot davomida olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish. Psixologik xususiyatga ega qarorlarni qabul qilish va unga ta’sir ko‘rsatdagan omillari bilan yaqindan tanishish. Amaliyotda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini mustahkamlash. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik, tibbiy psixologik, huquqiy psixologik, pedagogik psixologik, menejment psixologiyasi, ontogenez psixologiyasi va psixologiyaning boshqa sohalariga doir muammolar bo‘yicha psixologik tadqiqotlar o‘tkazish.

**Pedagogik amaliyot:**

Maktab, sinf va psixologiya fanidan o‘quv reja bilan umumiy tanishuv. Ta’lim korxonasi rahbariyati tomonidan uyushtiriladigan suhbatlarda ishtirok etish. Sinf va o‘quvchilar bilan tanishuv, sinf rahbari bilan suhbat, uning ish rejasi bilan tanishish, maktab hujjatlari: sinf jurnali, o‘quvchilar kundalik daftari, ularning fan daftarlari bilan tanishish. Sinf rahbari tomonidan o‘tkaziladigan sinf soatlari, majlislari, suhbatlarida ishtirok etish; biriktirilgan sinf darslarida, predmet o‘qituvchilari darslarida ishtirok etish va ularni birgalikda tahlil qilish. Auditoriyadagi o‘quvchilar bilan muomala qilish va dars o‘tish ko‘nikmasi hamda malakasiga ega bo‘lish. Psixologiya o‘qitishda turli xil metodlardan foydalanish, o‘qituvchilar bilan muloqot qilishni bilish hamda o‘qitishning hozirgi zamon texnik vositalaridan erkin foydalana bilish. O‘tkazilgan darslarni mustaqil tahlil qila olish; o‘quvchilar bilimini baholay bilish.

Agar talabalar bilimlarini amaliyotda qo’llanishi, hayotga tatbiq etishni o’rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kesalar ularning olgan bilimlari qat`iy ishonchga aylanadi. Amaliyot jarayonida bo’lajak o’qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik malakalari shakllanishida o’z-o’zini tarbiyalashning kuchayishiga yordam beradi. Malakaviy amaliyotning birinchi kunidayoq talabalardan asosiy ijtimoiy vazifa, ya’ni har tomonlama rivojlangan yetuk insonni shakllantirish, yosh avlodni hayotga va mehnatga faol tayyorlash talab etiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, malakaviy amaliyot davrida talabalarning ishi ijodiy xarakterga bo’lishi lozim. Talabalar o’z kasbiy majburiyatlarini ijodiy bajarsa pedagogik topshiriqni hal qilishining samarali shakl va usullarini qidirsa, o’zi tanlagan kasbiga munosabati, pedagogik faoliyatga qiziqishi kasbiy mahorati oshib boradi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda malakaviy amaliyot ilg’or ish tajribalarini o’rganish maskani mahorat maktabi hisoblanadi.

***O‘zbekiston Respublikasida koronovirus infeksiyasining tarqalishini oldini olish va ta’lim muassasalarida sanitariya epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash maqsadida barcha ta’lim muassasalari talabalari uchun joriy yilning 16-mart kunidan boshlab muvaqqat ta’til e’lon qilinganligini e’tiborga olib, talabalarning amaliyot o‘tash tartibini ishlab chiqish va onlayn ko‘rinishida olib borilishini ta’minlash maqsadida amaliyot dasturiga birmuncha o’zgarishlar kiritilgan.***

Oliy o’quv yurtlarida malakaviy amaliyot tizimi va tuzilishi quyidagicha: talabalarni bo’lajak mustaqil faoliyatga tayyorlash uchun malakaviy amaliyot ma`lum tizimi asosida tashkil qilinib, kursdan-kursga o’tishi bilan unga bo’lgan talab ortib boradi. O’qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatiga bo’lgan yuksak talablar zaruriy ravishda pedagogik amaliyotning izchil, ilmiy asoslangan tizimini yaratishni taqozo qiladi. Malakaviy amaliyotning turlari va muddatlari mutaxassislik va o’quv yillari bo’yicha davlat hujjati hisoblangan amaldagi o’quv rejalari bilan belgilanadi. Mazkur hujjatga ko’ra talabalar pedagogik amaliyoti quyidagi turlarga bo’linadi:

- ✓ *1-kurslar tanlagan kasbi va o’quv yurti sharoitiga moslashish. Muddati 2- jarayonda 2 hafta.*
- ✓ *2-kurslar 4- jarayonda ta’lim muassasalarida. Muddati 2 hafta.*
- ✓ *3-kurslar bo’lajak ish joyini o’rganish, o’quv yurti pedagogik faoliyatga tayyorlanish. 6 –jarayon 4 hafta.*
- ✓ *4-kurs talabalari 8 hafta pedagogik amaliyot o’taydilar.*

Mazkur tizim talabalarni bosqichma- bosqich pedagogik faoliyat mohiyatini anglash va mustaqil ravishda pedagogik hodisalar, jarayonlarni bilish imkoniyatini yaratadi

## Malakaviy amaliyotda talabaning burch va vazifalari

1. Pedagogik amaliyot davrida talaba amaliyot dasturida belgilangan barcha ishlarni bajarishga majbur. Dars va tarbiyaviy tadbirlarga puxta tayyorlanib, o’quvchilar uchun yuksak intizom, xushmuomila, mehnatsevarlik namunalarini ko’rsatish zarur.
2. Amaliyotchi talaba maktabning ichki tartib qoidalariga so’zsiz rioya qilishi lozim. O’ziga topshirilgan vazifalarni yuqori saviyada bajarishi shart.
3. Amaliyotchi talaba o’ziga yuklatilgan vazifalarni bajarmasa yoki qoniqarsiz bajarsa, intizomsizlik qilganda u amaliyotdan chetlashtiriladi. Amaliyotdan chetlashtirilgan talaba fakultet kengashi ruxsati bilan o’quv mashg’ulotlaridan ozod qilingan holda qaytadan malakaviy amaliyotni o’tishi kerak.
4. Malakaviy amaliyot davrida shu maktabdagi talabalardan biri guruhga boshliq qilib tayinlanadi. Uning vazifasiga amaliyotchilar davomatini hisobga olish, ped amaliyot rahbarlari, maktab o’qituvchi va ma’muriyati topshiriq va vazifalarni o’tkazish, turli tashkiliy ishlarni uyushtirish vazifasi yuklanadi.
5. Amaliyotchi talabalar pedagogik amaliyot davrida mazkur o’quv yurtida qabul qilingan ichki tartib qoidalarga bo`ysunadilar.

## Malakaviy (o'quv) amaliyotning maqsadi va vazifalari:

Malakaviy amaliyot davomida bo'lajak pedagog- o'qituvchilar ta`lim-tarbiya jarayonini turli tomonlarni kuzatish, tahlil qilish, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishni o'rganadilar.

O'quvchilar bilan mustaqil ravishda sinfdan va maktabdan tashqari muassasalarda, oromgohlarda pedagogik faoliyat olib boradilar. Maktabdan tashqari muassasalarda olib boriladigan malakaviy amaliyot oliy ta'lim muassasasi o'quv rejasida ko'rsatilgan bo'lib, uning o'tish tartibi hamda muddati ham shu asosda belgilangan. Bu amaliyoning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni turli tarbiyaviy-tashkiliy shakllardagi ishlarga o'rgatishdir. Malakaviy amaliyotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- olgan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash;
- o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, kuzatish va tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish va o'rganish;
- guruh, to'garak rahbari ishini bajarish, turli tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish, jamoa va alohida o'quvchilar bilan ishlay olishga o'rgatish;
- alohida qobiliyatli intelektual yoshlarni aniqlash mahoratini o'stirish;
- o'quvchilar salomatligini mustahkamlash ko'nikmalarini singdirish;
- pedagog - tarbiyachi kasbiga mehrni, pedagogik-psixologik va metodik fanlarni o'rganish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishni tarbiyalash.

***Oliy o'quv yurti 1-3-kurs talabalarining malakaviy amaliyotini maktabdan tashqari muassasalar, maktab qoshidagi shahar va shahardan tashqari dam olish va sog'lomlashtirish oromgohlarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida, mahalla, maxsus maktablar, mehribonlik uylari, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida tashkil etiladi. Unda talabalar tarbiyachi, guruh yetakchisi, to'garak rahbari va yordamchisi kabi lavozimlarda ishlashlari mumkin.***

**Bu jarayonda talabalar quyidagi ishlarni bajarishlari lozim:**

Malakaviy amaliyot o'tkazgan ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar tarkibi bilan tanishish, ularning tayyorgarligi (shaxsiy tibbiyot daftarchasi, shaxsiy gigiena buyumlari, kerakli buyumlar, o'quv mashg'ulot qurollari va hokazolar. Bilan taminlanganligi) aniqlaydilar;

- ➢ har bir bolaning shaxsiy qiziqishi va xususiyatlarini aniqlash, kundalik haftalik,ish rejalar tuzish;
- ➢ bolalar bilan mustaqil ishlash, ularni turli ko'rsatmalar bilan tanishtirish, guruh to'garak majlisi, turli ko'rik musobaqalar, ertalabki saflanishni o'tkazish ishlarini tashkil etish;
- ➢ turistik yurishlar uyushtirish va o'tkazish. Bu jarayonda joyni to'g'ri va aniq belgilash ko'nikmalarini egallash;
- ➢ turli ijtimoiy - siyosiy, ma`naviy axloqiy mavzularda suhbatlar o'tkazish, vaqtli matbuot, radio, televideniye eshittirishlari bilan tanishtirish, sport o'yinlari,

taniqli olimlar, shoirlar, sportchilar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvchilar tashkil etish;

- yaqin atrofdagi ishlab chiqarish korxonalari, xo'jliklardagi mehnat jarayonlari bilan tanishtirish;
- tabiatga sayr qildirish, jonli tabiat bilan tanishtirish, jonli burchaklar tashkil
- etish, o'lkashunoslik materiallari, o'simliklardan namunalar yig'ishga o'quvchilarni o'rgatish;
- bolalar yoshiga mos turli o'yinchoqlar yasash, o'yinlar o'tkazish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassalari va oromgoh ichki tartib qoidalariga rioya qilish, tozalik va ozodalikka e`tibor berish, novbatchilar ishini tashkil qilish
- muassasa kengashlarida ishtirok etish;
- ishchi qog'ozlar, hujjatlar bilan tanishish va ularni yuritishni o'rganish.

***Talabalar malakaviy (o'quv) amaliyoti jarayonida quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:***

- o'quvchilar (dam oluvchilari, to'garak, seksiya azolari) bilan mazkur sharoitda ta'lim-tarbiya ishlari maqsadi va vazifasi, shakllarini to'g'ri belgilash va o'tkazish;
- tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning yosh, individual, xususiyatlari, qobiliyatlariga mos kelishi , ularni dam olish va sog'lomlashtirishga xizmat qilishi;
- bolalarni o'z-o'zini boshqarishni tashkil etish;
- tarbiyaviy-tashkiliy ishlarni yakka-yakka guruhli shakllaridan o'rinli foydalanish;
- o'quvchilar o'rtasida o'zaro yordam, mehr-oqibat, hamkorlik kabi ijobiy munosabatlarni shakllantirish;
- amaliyotchi talaba o'z pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, uni mohiyatini anglashni tahlil qila olishi;
- bajarilgan ishlarni umumiy xulosalash, yakuniy natijaga erishish, kamchilklarni bartaraf eta olish.

**Birinchi kurs talabalari amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish tartibi**

Oliy o'quv yurti talabalari malakaviy amaliyotning bosh maqsadi ularni tanlagan kasbiga, vataniga sodiq ruhda tarbiyalashdan iborat. Malakaviy (o'quv) amaliyot uzluksiz bo'lib, bakalavr talabalar uchun 1-kursdan 4-kursgacha davom etadi. Birinchi va uchinchi kurs talabari uchun malakaviy (o'quv) amaliyot tanlagan kasbiga mohiyat va mazmuni, maqsad va vazifalarini chuqur anglash, unga ichki va kasbiy hozirlanish vazifasini bajarib, ma'lum manoda o'zini o'zi sinovdan o'tkazadi. Shu asosda tanlagan kasbiha o'zini ruhiy va kasbiy tayyorlaydi. Malakaviy (o'quv) amaliyot uzluksiz bo'lib, birinchi kurs talabalari uchun oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayoniga o'zini moslashtirish va ko'niktirishga xizmat qilmog'i lozim.

Birinchi kurs talabalari malakaviy amaliyotining mavzusi: "Ta`lim muassasalarini o'rganamiz". Bu ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qism tanlagan o'quv yurtini o'rganish; 2-qismi o'lkamizni o'rganish. Birinchi kurs talabalari amaliyot jarayonida quyidagi ishlarni bajaradilar. Ta'lim mussasasa va rahbarlari bilan

tanishish, sinflarga biriktirilish, o'quvchilar bilan tanishish, o'quvchilarni qabul qilib olish va kuzatishni o'rganish, maktabga qabul qilishni o'rganish, o'quvchilarning reyting tizimini o'rganish, bo'sh o'zlashtiruvchi va faol o'quvchilar bilan ishlash, o'qituvchining yillik ish reja, tarbiyaviy ish reja bilan tanishish, o'quv-tarbiya jarayonini kuzatish va tahlil qilish va b.

***I. Ta`lim muassasalari tuzilishi, unda rahbarlik va boshqarish tizimi bilan tanishtirish.***

1) ta`lim muassasasi ichki tartib qoidalari bilan tanishtirish.
2) ta`lim muassasasi rahbari, uning o'rinbosarlari bilan tanishtirish
3) kutubxona bilan tanishish, unga a'zo bo'lish va kitob fondidan foydalanish
4) yotoqxonada yashash tartibi qoidalari bilan tanishish;
5) kafedralar, ularning o'quv jarayonidagi o'rnini bilish.

***II. Ta`lim muassasasida o'quv- tarbiya jarayoni.***

1) o'quv mashg'ulotlar shakl va metodlari va ularda ishtirok etishning majburiyligi;
2) o`quvchilar bilimini baholash- reyting tizimi
3) ularning o'zlashtirishi darajasi bilan bog'liqligi
4) o`quvchilarni o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlari tuzilishini va shakllari hamda talabalr ishtiroki;
5) ta`lim muassasasida sport inshootlari, zallar, to'garaklarning ish tartibi.

**Malakaviy amaliyot bo'yicha talabalar quyidagi hujjatlarini fakultet amaliyot bo'limiga onlayn tarzda topshiradilar:**

1. Kundalik
2. Hisobot (hisobot komissiya oldida himoya qilinadi).
3. Bajarilgan ishlarning natijalari.

## 2- KURS TALABALARINING MAKTABDAN TAShQARI TA'LIM MUASSASALARIDAGI MALAKAVIY AMALIYOTI MAZMUNI

2-kurs talabalarining malakaviy amaliyoti 1-kurs talabalari uchun mo'ljallangan malakaviy amaliyotning tadrijiy davomi bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda talabalar o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbat o'tkazish tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, sinflarga biriktirilish, o'quvchilar bilan tanishish, bo'sh o'zlashtiruvchi va faol o'quvchilar bilan ishlash, o'qituvchining yillik ish reja, tarbiyaviy ish reja bilan tanishish, o'quv-tarbiya jarayonini kuzatish va tahlil qilish bilan mustaqil shug'ullanadilar. Agar ta'lim muassasasining o'quv rejasiga o'zgartirish kiritilib malakaviy amaliyot o'quv yilining oxirgi haftalariga ko'chirilsa talabalar malakaviy amaliyotni maktabdan tashqari muassasalar va bolalar yozgi oromgohlarida o'tkazishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan malakaviy amaliyotga oid Nizomda ham universitet faoliyatining asosiy tamoyili bo'lgan o'qishni amaliyot bilan qo'shib

olib borilishiga urg'u berilgan. Bu esa yozgi oromgohlar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiyaviy ishlarga yangicha yondashish asosida pedagogik jarayonini tashkil etishni taqozo etadi. Amaliyotning bu turi bo'lajak mutaxasislarni tayyorlashning 2-bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qilish va o'tkazish usullari imkoniyatlari bositalarini namoyish qilish uchun o'tkaziladi. Malakaviy amaliyot muassasalarida talabalarning tashkiliy, konstruktivli, rejalashtirishi, kommunikativ tadqiq qilish kabi pedagogik mahoratni shakllantirish bilan birga individual va insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Amaliyotning maqsadi muassasalarda tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogiik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Agar talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni, hamda tadbiq etishni o'rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kesalar ularning olgan bilimlari qatiy ishonchga aylanadi. Shuni takidlash lozimki, malakaviy amaliyot davrida talabaning faoliyati mazmuni ijodiy xarakterda bo'lishi lozim. O'z kasbiga majburiyatlarni ijodiy bajarsa, kelajakda faoliyatini etishda asosiy diqqat etibori pedagogik topshiriqlarni hal qilishni samarali shakl va usullarini izlasa, keying ish faoliyati jarayonida yani dars o'tishda mashg'ulotlar o'tkazishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi imkoniyatiga zamin tayyyorlaydi. Shundagina kasbiy mahorati oshib borishi va bu sohada katta muvofaqqiyatlarga erishish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, malakaviy pedagogik amaliyot ilg'or ish tajriblarini o'rganish maskani, mahorat maskani hisoblanadi.

Yozgi malakaviy amaliyotning asosiy maqsadi talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirish hamda o'smirlar bilan yozgi ta`til davrida tarbiyaviy -tashkiliy ishlar olib borish metodikasini egallashdan iborat. Talabalar bolalar yetakchisi , tarbiyaga suzish va turizm bo'yicha instruktorlik kasblari tarzida amaliyot o'tkazadilar. Amaliyotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yozgi ta`til sharoitida o'quvchilar bilan mustaqil ish olib borish mahorati va malakasini egallash.

Yozgi dam olish sharoitida o'quvchilarni tarbiyalashning shakl va metodlarini o'rganish

- Bolalar bilan darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'tkazish metodikasini egallash.

- Yozgi amaliyot maktabdan tashqari muassasalar qoshidagi, shahar va shahardan tashqaridagi dam olish va sog'lomlashtirsh oromgohlarida tashkil etiladi. Unda talabalar tarbiyachi, guruh yetakchisi, jismoniy tarbiya instruktori kabi lavozimlarda ishlash bilan birga turli to'garaklarning rahbarlari bo'lib ishlashlari mumkin. Yozgi amaliyotda talabalar quyidagi ishlarni bajarishlari lozim.

1. Dam oluvchi o'quvchilar tarkibi bilan tanishish, ularni lagerga tayyorlgarligi (tibbiyot xodimi xulosasi, kerakli kiyimlar va oyoq kiyimi, shaxsiy gigiyena buyumlari bilan ta'minlanganlik) aniqlaydilar.

2. Har bir bolani shaxsiy qiziqishi va xususiyatlarini aniqlash, navbatchilik uchun kundalik va ish reja tuzish.

3. Bolalar faollari bilan ishlash, ularni turli ko’rsatmalar bilan tanishtirish, guruh majlisi, turli ko’rik musobaqalar, ertalabki savflanishni o’tkazish ishlarini tashkil etish.

4. Turistik yurishlar uyushtirish va o’tkazish, yurishlar paytida joyni to’g’ri belgilash ko’nikmlarini egallash.

5. Turli ijtimoiy - siyosiy, axloqiy mavzularda suhbatlar o’tkazish, davriy matbuot va radio, televideniye eshittirishlari bilan tanishtirish, harbiy sport o’yinlari, taniqli mehnat faxriylari va olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

6. O’quvchilarni yaqin joylashgan ishlab chiqarish korxonalari, jamoa xo’jaliklaridagi mehnat jarayonlari bilan tanishtirish.

7. Tabiatga sayr qildirish, jonli tabiat bilan tanishtirish, jonli burchaklar tashkil etish, o’lkashunoslik materiallari, o’simliklardan namunalar yig’ishga o’quvchilarni o’rgatish.

8. Bolalar yoshiga mos o’yinlar, ashulalar o’rgatish.

9. Dam oluvchilarni oromgoh ichki tartib qoidalariga rioya qilishga , ularni sog’ligini mustahkamlash, toza va ozodalikka rioya qilishga o’rgatish.

10. Lager sharoitida o’tkaziladigan turli ishlab chiqarish pedagogika kengashlarida qatnashish.

11. Bajargan ishlarini qayd qilib borish uchun kundalik yuritish.

## 5110900 – Pedagogika va psixologiya TA`LIM YO`NALIShI 3-kursida umumiy o’rta ta’lim maktablarida tashkil etiladigan malakaviy amaliyotining namunaviy dasturi (6-semestr 4 hafta)

## MALAKAVIY AMALIYOTNI TAShKIL ETISh

Malakaviy amaliyot oliy ta’lim muassasasi tasdiqlab bergan o’quv rejasiga muvofiq ravishda tashkil etiladi.

Malakaviy amaliyotning kafedra tomonidan tasdiqlanadi. Umumiy rahbar amaliyot o’tkaziladigan muassasa bilan shartnoma tuzadi. Tuzilgan shartnomada tomonlarning majburiyatlari, vazifalari, o’tkazish muddati, kursi, bo’limi, amaliyot turi, aniq ko’rsatilishi lozim.

Malakaviy amaliyotga chiqishga tayyorgarlik, laboratoriya amaliyotlarini samarali, maqsadli o’tkazish bilan bog’liq.

Malakaviy amaliyot bo’yicha boshlanish va yakuniy anjumanida amaliyotning guruh rahbarlari, o’qituvchi-metodistlar ishtirok etadilar.

Umumiy rahbar malakaviy amaliyotning maqsadi, vazifalari va har bir javobgar shaxslarning majburiyatlari, ish vazifalari haqida tushuncha beradi.

O’qituvchi-uslubshunoslar amaliyot davrida talabalarni o’z fanlari bo’yicha bo’ladigan ishlari bilan tanishtiradilar.

**Malakaviy amaliyot davrida talabalar quyidagilarni o’rganishlari va bilishlari shart:**

Malakali psixolog mutaxassislarni tayyorlash Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda malakaviy amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik-psixologik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash;
- bo'lajak psixologiklarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo'llash malakalari bilan ta`minlash;
- talabalarni sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilinishi va o'tkazilishi bilan tanishtirish;
- talabalarni o'quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg'or pedagogik-psixologik tajribalari bilan tanishtirish;
- o'qituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;
- talabalarni bevosita pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;
- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini joriy va istiqbolli rejalashtirishni o'rgatish;
- talabalarda o'qituvchining ish rejasiga maktab o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish malakasini shakllantirish;
- ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllari (dars, suhbat, o'yin va boshqalar)ni amaliyotga tadbiq qilishni o'rgatish;
- talabalarga o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini kuzatish va tahlil qilishni o'rgatish;
- zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llab, dars o'tishni o'rganish kabilardan iborat.

**I. Dars tiplari bo'yicha dars kuzatish (yangi bilim berish; o'tganlarni mustahkamlash; takrorlash; bilimlarni nazorat qilish darslari).**

O'quv muassalardagi darslarini kuzatish. Kuzatilgan darslarni tahlil qilish: a) dars turlarini; b) mavzuni tushuntirish yoki takrorlashda foydalanilgan metod (uslub); v) tanlangan metod va uslublarning dars mavzusi va maqsadiga mosligi; g) mavzuni mustahkamlash, ular hosil qilgan ko'nikma va malakalarni tekshirishga oid darslarni kuzatish.

1. Darslarni kuzatishda quyidagilarga ahamiyat beriladi.

a) dars va unga qo'yilgan maqsad;

b) darsning jihozlanishi (ko'rgazmaning turlari).

v) darsning borishini to'liq yozib tahlil qilish, bolalarda o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun o'tkazilgan mashq turlari, analiz-sintez usulidan foydalanish.

Darsni xulosalashda foydalanilgan ish turlari: dars jarayonida oldindan tayyorlangan ko'rgazmalardan, shuningdek, psixo-trening o'yinlardan foydalangani haqida kuzatuvchining mulohazasi.

**II. Dars ishlanmasini loyihalash.**

Sana:
Sinf:
Fan:
Mavzu:________________
Dars maqsadi:

a) ta'limiy: (tugallangan bilim berish; o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; atrof-muhitdagi narsa-hodisalarga to'g'ri munosabatni shakllantirish).

b) tarbiyaviy: (aqliy, axloqiy, ma'naviy, estetik va nafosat, huquqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, ekologik, jismoniy).

d) rivojlantiruvchi: (boshqa fanlar va ijtimoiy hayot bilan bog'lash, dunyoqarashni shakllantirish, tafakkur doirasini kengaytirish).

Dars tipi: (yangi bilim berish; o'tganlarni mustahkamlash; takrorlash; bilimlarni nazorat qilish darslari).

Dars usuli: og'zaki, yozma, ko'rgazmali-obrazli.

Dars jihozi: (o'quv adabiyotlar, darsliklar, ko'rgazmali qurollar, o'qitishning texnik vositalari, sxemalar, albomlar, tarqatma materiallar).

Dars rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Uyga vazifani so'rash.
3. O'tgan mavzuni so'rash va mustahkamlash.
4. Yangi mavzuga tayyorgarlik.
5. Yangi mavzu bayoni.
6. Yangi mavzuni mustahkamlash.
7. O'quvchilarni baholash.
8. Uyga vazifa berish

**III. Dars tahlili sxemasi.**

Butun dars jarayoni bir necha qismda tahlil etiladi.

I. Pedagogik.
II. Metodik.
III. Psixologik.

**Pedagogik tahlil** – bunda o'quvchini tashqi qiyofasi, nutqi, sinf bilan til topa olishi, milliy tarbiya, ekologiya, iqtisodiy tarbiya, axloqiy, g'oyaviy siyosiy elementlarni, tarbiya turidan qaysi biriga e'tibor berish lozim, qanday dars turidan foydalansa, dars samarali bo'ladi – bu masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etadi.

Metodik tahlilda qanday usullarda darsni olib borilishi, qo'llanilgan dars shakli mavzuga mos keadimi yoki yo'qmi, tayyorlangan ko'rgazmalar, namunalar mavzuni ochib berishga xizmat qilishi, darsda tadbiq etilgan yangi pedagogik texnologiyalar qay darajada o'zining samarasini berganligi haqida ma'lumot beriladi.

Sana:
Kuzatilgan dars____________________________
O'qituvchi_________________
Sinf__________
O'quvchi soni______

Toifasi_____________
Mutaxassisligi_____________
Ish staji_________
Tahlildan maqsad: ______________________________________

| Darsning borishi | Darsda erishilgan yutuqlar | Kamchiliklar | Taklif va mulohazalar |
|---|---|---|---|
| | | | |

O'quvchilarni baholash_____________________________

Xulosa__________________________________________

**Dars kuzatuvchi uchun yo'riqnoma**

1. Sinf xonasining ko'rinishi.
2. Darsni tashkillashtirish.
3. Darsning ko'rgazmaliligi.
4. O'qituvchining usuliy mahorati.
5. O'qituvchining faoliyati va bilim darajasi.
6. Vaqt taqsimoti va undan foydalanish.
7. Darsda noan'anaviy usullardan foydalanish.
8. Test, tarqatma va didaktik ashyolardan foydalanish.
9. Darsni boshqa fanlar bilan bog'lash.
10. Uy vazifasi nazorati.
11. O'quvchilar bilimi sifati va uni baholash.
12. Darsda ma'naviy tarbiya.
13. Texnika vositalaridan foydalanish.
14. Darsning ilmiy va nazariy jihatdan to'g'riligi.
15. Darsda ta'lim-tarbiya birligi.
16. Ilg'or pedagogik tajribalardan o'qituvchining foydalanishi.
17. O'qituvchining dars davomida o'quvchilar bilan ommaviy va yakka tartibda ishlashi.
18. Darsda qo'llangan ish turlarining mavzu talabiga mosligi.
19. Darsga qo'yilgan maqsadga erishilganligi.
20. O'qituvchi tomonidan dastur materiallarining to'liq berilishi.
21. O'quvchilar bilan mustaqil ishlarning tashkil etilishi.
22. DTS qonun qoidalari asosida darsni tashkil etish.

## IV. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning tahlili.

| Hafta kunining yo'nalishi va sanasi | Tadbir va uni bajaruvchilar | Tadbirning tahlili va pedagogik xulosa. |
|---|---|---|
| | | |

*Ishning shakli va mazmuni.*

1. Tarbiyaviy maqsad, shu ishda hal qilinadigan vazifa.
2. O'tkazish vaqti-kuni, soati.
3. Tanlab olingan tadbir shakli, o'tadigan joyi.
4. Tadbirning dasturi.
5. Tayyorgarlik davrida qilinadigan ishlarning turi, yo'nalishi.
6. Kerak bo'ladigan jihozlarni, bezaklarni tayyorlash.
7. Guruh rahbarining ushbu ishdagi ishtiroki va mavqei.
8. Ishning natijasini tahlil qilib, kamchiliklarni belgilash.

**V. Sinfdan tashqari ishlar.**

1. O'quv - tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosar, muassasa psixologi, tajribali o'qituvchilar bilan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar haqida suhbatlashish.

2. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni tashkil qilish metodikasini, ahamiyatini o'rganish uchun 2 ta tadbirni kuzatish.

3. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etish.

4. Amaliyotchi talaba amaliyotning boshlanishida pedagog – psixolog sifatida olib boradigan ishlari mazmuni va metodikasi bilan tanishib, guruh faollari bilan yaqindan tanishadi.

5. Ta'lim muassasasi psixologining yillik ishlar rejasini o'rganadi.

## 5110900 – PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA`LIM YO'NALIShI

## 4-KURSIDA TA'LIM MUASSALARIDA TAShKIL ETILADIGAN MALAKAVIY AMALIYOTINING MAZMUNI

**(7-semestr, 8 hafta)**

Psixologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs bakalavr-talabalari pedagogik amaliyoti oliy ta'lim tizimida muhim hisoblanadi. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalar olgan nazariy bilimlarni yanada mustahkamlab, pedagogik faoliyatga bo'lgan havaslarini o'stirish hamda unga doir tegishli malakalar hosil qiladilar.

Malakaviy amaliyot davrida bo'lajak o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini o'tkazishni o'rganadi. Ta'lim oluvchilar bilan mustaqil ravishda psixodiagnostik ishlar olib boradilar.

Bakalavr-talabalar malakaviy amaliyoti oliy o'quv yurti o'quv rejasi va DTSda ko'rsatilgan bo'lib, uning o'tish tartibi va muddati shu asosda belgilangandir.

Bakalavr-talabalarning oliy o'quv yurtlarida tahsil davridagi amaliyoti mazmuni ushbu dasturda belgilangan bo'lib to'rt turga bo'linadi.

✓ 1-kurslar tanlagan kasbi va o'quv yurti sharoitiga moslashish. Muddati 2-jarayonda 2 hafta.

- ✓ 2-kurslar 4- jarayonda ta'lim muassasalarida. Muddati 2 hafta.
- ✓ 3-kurslar bo'lajak ish joyini o'rganish, o'quv yurti pedagogik faoliyatga tayyorlanish. 6 –jarayon 4 hafta.
- ✓ 4-kurs talabalari 8 hafta pedagogik amaliyot o'taydilar.

Mazkur hujjatlarda har to'rttala amaliyot mazmuni bayon qilinadi.

## 4-kurs talabalari malakaviy amaliyotining ilmiy-uslubiy asoslari.

### O'qituvchining ta'lim-tarbiyani tashkil qilishdagi vazifalari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'zining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-yuridik ifodasini topdi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir». Bu vazifani bajarish ta'lim-tarbiya jarayoniga, uning mazmun, shakl va metodlarini, o'quv yurtlarida tarbiyaviy jarayonni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. O'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor berib, ularda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o'z kasbini mukammal o'rganishi bilan birga yuksak axloqiy sifatlarga ega bulgan shaxs sifatida ularni shakllantirish nixoyatda muhimdir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar halqaro miqyosida eqtirof etilib, o'zining dastlabki samaralarini bera boshladi. Buning oqibatida respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Ammo uning kelgusi taraqqiyotiningb millarini inobatga olib mutaxassislar tayyorlashni jaxon andozalariga moslashtirish, ularni o'z mutaxassisliklari va ijtimoiy-siyosiy bilimlarini shaxsiy e'tiqodiga aylantirishni taqozo qiladi. Yangi tarixiy sharoitda insonni o'zini takomillashtirmasdan turib, jamiyat oldida turgan murakkab iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini hal qilish mumkin emas. Chunki ularni yechishda inson ongli, aql-zakovati, ijtimoiy faolligi halq, millat oldidagi mas'uliyatini his qilish muhimdir. Inson va uning ongini, tafakko'rini o'zgartirish bilan mustaqil davlatni qurish bir-biriga dialektik bog'liq jarayondir.

Insonlarning fan, ta'limot, g'oyalarni egallab olish jarayonlarini tahlil qilar ekanmiz, xaqiqatdan ham har qanday g'oya, qaror, qonun insonlar ongi, harakati, xulq- atvoriga singishi, bilimi-ma'naviy dunyosi orqali amaliy faoliyatga tatbiq qilinishining guvohi bo'lamiz. Inson g'oya, qaror, qonunlarni o'zlashtirib olib, o'z ma'naviy mulkiga aytantirigach, jamiyatni, kishilarni o'zgartirish quroliga aylanadi. Shuning uchun davlatimiz oldida yangi, erkin ozod, mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash hayot-mamot masalasi sifatida ko'ndalang bo'lib qoladi. Bu ijtimoiy zaruriyat butun ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini yangi, g'oyaviy asosda isloh qilishni talab qilar edi. Chunki bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot, yuqori kasbiy tayyorgarlik bilan birga kadrlardan tashabbuskorlik va tadbirkorlik, so'z va amaliy ish birligi, mustaqil fikrlash, istiqbolli maqsadga intilish, Vatan, halq, millat ravnaqi yo'lida fidoiy bo'lishini ham talab qiladi. Bo'lajak

mutaxassislarda bu sifatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining ishtirokisiz amalga oshmaydi.

Jahonning ko’p rivojlangan mamlakatlari tajribasi davlatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy rivojlanishi ta’lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimi bilan uzviy bog’liq ekanligini ko’rsatadi. Chunki ta’lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimining asosiy obeqkti inson shaxsi, uning ma’naviy va axloqiy kiyofasi, bilimi va kasbiy kamolotidir. Shuning uchun mamlakatda biron-bir masalani inson ishtiroksiz, kadrlar saviyasi, malakasisiz amalga oshirib bo’lmaydi. Mustaqillik sharoitida ta’lim-tarbiya, eng avvalo, mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalashga xizmat qilishi ijtimoiy jixatidan muhim bo’lib qoladi. Shu bilan birga uning markazida faqat davlat manfaati emas, eng avvalo, shaxs extiyojiga xizmat qilish ustuvor yunalish sifatida qo’yiladi. Yangi tarixiy sharoitda mamlakat taraqqiyotining xarakatlantiruvchi kuchi ta’lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash ekanligi xar tomonlama asoslanadi…. «Tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammo» - ekanligi hayotiy bo’lib qoladi. Ko’ryapmizki, inson tarbiyasi, uning tarbiyalanganlik darajasi faqat jamiyat taraqqiyotining hozirgi kuni uchun emas, balki kelajagi uchun ham muhimdir. Shunday qilib, milliy hozirgi sharoitda bo’lajak mutaxassislarda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish o’quv-tarbiya jarayonining muhim ajralmas vazifasiga aylandi. Chunki ma’muriy-buyruqbozlik sharoitida shaxsga, asosan, tashqi ma’muriy ta’sir orqali munosabatda bo’lish, uni o’z xohishi, istagi va mustaqil qaror qabul qilishdan mahrum qilib, ma’muriy tayziq quliga aylantirib, avtomatik ravishda ko’rsatma va buyruqlarni bajaruvchi robotga aylantirgan edi. Bozor munosabatlari sharoitida mutaxassis ma’muriy tayziqdan xalos bo’lib, ijodiy, mustaqil fikrlashi, yuksak kasbiy tayyorgarlik bilan birga umumiy ma’naviyati, pok axloqi, ijtimoiy faolligi hayot talabi bo’lib qoladi. Ishlab chiqarish jarayonida vaziyatdan keib chiqib to’g’ri qaror qabul qilishi uning shaxsiy sifatlari insoniy va kasbiy madaniyatining ajralmas xususiyatidir. Aynan shunday sifatlar mutaxassisni yaratuvchilikka undab o’z navbatida kasbi orqali-jamiyat iqtisodiy- ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo’sha olishiga olib keadi.

Bu sifatlar mutaxassislarni ongli rivojlantirish va o’zligini anglashi orqali unini xalq, Vatan, manfaatlariga shaxs va kasb sohibi sifatida hissa qo’shishga tayyorlashni taqozo qiladi. Bu zaruriyat mutaxassisning o’z faoliyatini xolisona baholash va nazorat qilish, o’zining insoniy shaqni, shaxsiy g’ururi asosida tartibga solish mexanizmlarini o’zida shakllantirishda oliy o’quv yurtidagi ta’lim-tarbiya jarayoni asosiy rol o’ynashi lozim. Mutaxassis shakllantirishga bunday yondashishning boisi shuki, insonning ichki ma’naviy dunyosi xulq-atvor normalarini ichki motivga aylantirib, motiv esa yunaltiruvchilik rolini bajaradi. Bunday talabaning ta’lim jarayonidagi faolligi oshib, o’zini shaxs sifatida shakllantirishini, kasbini chuqur egallash bilan yaxlitlikda, ichki anglangan motiv ta’siri ostida amalga oshiradi.

Shundan keib chiqib, hozirgi sharoitda oliy o’quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash faqat kasb sohibini emas, balki uning shaxsiy sifatlarini o’zaro mutanosiblikda shakllantirish ham muhim o’rin egallamoqda. Ta’lim bilan tarbiya yaxlitligida tarbiya insonning o’z mohiyatini tushunish, kasbiy faoliyatini ezgulik,

kishilarga yaxshilik qilishga yunaltiradi. Shuning uchun I.Karimov «Keajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, keajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakkam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kemaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi» deb taqkidlashi bejiz emas.

Shundan kelib chiqib, Vatanimizda majburiy o'n ikki yillik ta'lim joriy qilinib har bir dunyoga kelgan bola maktab ta'limidan o'qituvchi ta'lim-tarbiyasidan o'tishi ijtimoiy zaruriyat qilib qo'yiladi. Shuning uchun har bir inson shaxs va kasb sohibi bo'lib yetishishida maktab va o'qituvchi muhim rol uynaydi. Ma'lum ma'noda bolalarimiz xalqimizning keajagi o'qituvchi qo'lida.

Shuning uchun buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) quyosh ostida o'qituvchi kasbidan buyuk kasb-yo'k degan edi. Chunki o'qituvchi qalb qo'ri, yuksak axloqiy fazilatlari bilan har bir insonni va jamiyat hama jabhalarini ma'naviy va moddiy mustahkamligini taqminlaydi.

Bundan ko'rinadiki, o'qituvchi yuqorida ketirilgan sifatlarga ega bo'lishi uchun uni tayyorlash zarur. Uning shaxsida yaxlit, ichki va boshka xarakterlovchi xususiyat uning g'oyaviy-siyosiy etukligi. Bu o'z navbatida uning ichki e'tiqodi hamda shaxsiy va ijtimoiy jihatidan o'z shaxsi va kasbini qadrlay olishida namoyon bo'ladi.

Mustaqil Vatanimiz o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy mohiyati hamda ijtimoiy hayotiga munosabati asosini Milliy istiqlol g'oyasi tashkil etadi. Uning kasbiy yunalishining mohiyati bolalarga muhabbat, pedagogik faoliyatga qiziqish pedagogik-psixologik kuzatuvchanlik va nazariy pedagogik odob, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik, haqgo'ylik, halollik, so'zamollik, talabchanlik, maqsadga qaratilganlik, xotirjamlik, o'z hatti- xarakati ruxiyatiga baho bera olish, ishchanlik, ma'naviy barkamollik, bilimga, yangilikka tashnalik, yangilikni seza va qadrlay olish, o'z bilimini majburiy takomillashtirishga intilish tashkil etadi.

Hozirgi sharoitda inson omilining o'sishi uni eng yuksak qadriyat deb e'lon qilinishi pedagogik bilimlariga ehtiyojni har qachondagidan oshirdi. Bunday sharoitda pedagogika fanining mazmuni boyib uning jamiyat hayotidagi vazifasi oshadi. Chunki istiqlol sharoitida jamiyat iqtisodiy ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining yaqin va istiqbolli rejalarini amalga oshirishda insonning faol hayotiy pozitsiyasi, ma'naviyati yuksak axloqiy sifatlari hal kiluvchi ahamiyat kasb etadi. Insonda bu sifatlarni shakllantirish esa pedagogika fanining ishtirokisiz amalga oshishi mushkul.

Shu asosda o'quv tarbiya jarayonini chuqur g'oyaviy asosda tashkil qila olish, milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida xar bir dars, tarbiyaviy tadbirni yuksak g'oyaviy-siyosiy asosda amalga oshirishi lozim. Xar bir dars, tarbiyaviy tadbirni mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, demokratik o'zgarishlar bilan uyg'un tashkil qila olish zarur.

Pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikasini bilish asosida o'z faoliyatiga pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olish mahorotini egallashi kerak.

O’z fanini chuqur bilishi asosida o’quvchilarga puxta bilim berish va ularni keajak hayotga, turmushga, kasb tanlashga tayyorlash ijtimoiy zaruriyat hisoblanadi.

## 2. O’qituvchi kasb mahoratini shakllantirishda pedagogik amaliyotning o’rni

O’qituvchini shaxs va mohir kasb sohibi sifatida shakllanishi birdaniga amalga oshmay, ma’lum bosqichlarni o’z ichiga oladi. Bu eng avvalo talabaning shu kasbni tanlashi u haqda ma’lum tasavvurga ega bo’lishi yoki shu kasbni sevishi, ikkinchi, OO’Yudagi tahsil unda o’rganiladigan maxsus fanlar ijtimoiy-gumanitar, pedagogika-psixologiya fanlarini o’zlashtirishi bilan bog’liqdir. Pedagogika, psixologiya fanlarini o’rganish jarayonida talaba o’qituvchi shaxsi va kasbiga doir talablar haqida ma`lumotga ega bo`ladi. Shu bilan birga talabada kishilar bilan ishlay olish, ularni ma`lum ish-faoliyatga yo`naltirishga doir yutuqlari turli ijtimoiy ishlarni bajarish va ilmiy-tadqiqiy ishlari ilmiy-amaliy konferentsiyalarga ma’ruzalar bilan chiqishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o’qituvchini kasbiy shakllanishda bevosita pedagogik amaliy faoliyati-malakaviy va o’quv-tarbiyaviy amliyoti muhim xisoblanadi. Aynan shu jarayonda ijtimoiy faol o’qituvchini shakllantirish ancha oson kechadi. Chunki bunda egallagan bilimlarni amalga qo’llash, pedagogik faoliyatga layoqati, shaxsiy jismoniy sifatilarining mos keish kemasligi sinaladi. O’z amaliy faoliyatini taxmini asosida o’qituvchi bo’lish uchun qaysi bilimlari yyetarli yoki qaysi fanlardan bilimlarini chuqurlashtirish istagi paydo buladi. Agar talabalar nazariy bilim olsalar amaliyot jarayonida uni sinaydilar. Nazariy bilim bilan amaliyotni omuxta qilib yangi bilimlarni o’rganishga qizikadilar. O’qituvchining kasbiy va shaxsiy shakllanishida aniq tashkil qilingan pedagogik amaliyot muhim o’rin egallaydi.

Shunda pedagogik amaliyot talabani o’qituvchi faoliyatiga tayyorlashi hamda unga shu faoliyat uchun zarur nazariy va amaliy bilim o’rinlarini egallashga undashi lozim. Pedagogik amaliyot jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni to’g’riligini tekshirish balki, ularni qo’llashga talabaning tayyorligi uni mustaqil ishlashga tayyorlash asosida o’qituvchi ijtimoiy faoliyati va shaxsi bilan chuqur tanishish imkoniyati ochiladi.

Yaxshi o’qituvchi bo’lish uchun o’z fanini chuqur bilish yetarli emas. Uni boshqalarga o’rgata olish xam o’ta muhim. O’z fanini xar tomonlama chuqur bilish bilan birga, uning boshqa fanlar bilan uzviy bog’liqligini, hozirgi zamon axborot texnologiyalari, huquq, tibbiyot jaxon va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqida ham bilimga ega bo’lish o’quvchilarning o’qituvchi shaxsi va faniga qiziqishini oshiradi. Demak o’qituvchining har tomonlama chuqur tayyorgarligi faqat kasbiy ehtiyoj emas, balki uning ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik mahorat bu uzoq izlanish va ijodiy ishlash mahsulidir.

Pedagogik amliyot jarayonida talabaga shunga havas va ishtiyoq uyg’otish o’ta muhimdir.

Pedagogik amaliyot davomida talaba o’qituvchi mehnatining mohiyati va qirralarini anglab oladi. Ya’ni o’qituvchi faqat dars beruvchi emas, balki keng miqyosida tarbiyaviy ishlar, o’quvchilar, ularning ota-onalari, mahala bilan ijtimoiy va tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirish lozimligini anglaydi. Bu esa talabani keng bilim, olish va yuksak madaniyat talab qiladi.

Umumiy o`rta ta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qituvchilarning o'z pedagogik mahoratlarini ta'minlashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Har bir o'quv yurtida zamonaviy Axborot-resurs markazlari tashkil etilgan. Ularda internet tarmog'ining mavjudligi masofaviy ta'lim orqali o'z bilimlarini har tomonlama boyitish, o'qitadigan fanlari bo'yicha yangiliklarni bilib olish imkoniyatini beradi.

Bundan o'quv yurtlarida «fan oyliklari» ya`ni har oyda ma`lum bir fanni o'qitishga e`tabor, u bo`yicha tadbirlarni tashkil qilinishi ham o'quvchilarni ijodiy ishlashga undaydi.

***Pedagogik amaliyot davrida talabalar quyidagilarni o'rganishlari lozim.***

-pedagogik-psixologik bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash, boyitish, ulardan pedagogik vazifalarni hal qilishda foydalanish;

-ilmiy-tadqiqot faoliyatiga doir ko'nikma va malakalarni shaklantirish;

-ta'lim-tarbiya jarayonini va o'z faoliyatini tahlil qilish va tegishli o'zgartirish kiritish;

-mustaqil ravishda bilimi va maxoratini oshirishga extiyojini tarbiyalash;

-sinf jamoasi va yakka o'quvchilarni kuzatish va o'rganish maxoratini egalash;

-o'quvchilar bilan muloqot muomila, aloqa o'rnatish mahoratini egalash;

-qiynalayotgan o'quvchilarga yordam ko'rsata olish;

-darslar, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va tahlil qilishni o'rganish;

-pedagogik aloqalar, pedagogik munozara madaniyatini o'rganish va unga ishtirok etish.

Amaliyotchi talabaning dastlabki qadamlaridagi muvoffaqiyat va qiyinchilik, kamchiligi faqat u uchun emas, balki uni 4 yil davomida o'qitgan oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari hamda rahbarlari uchun ham jiddiy imtihondir.

Talaba dastlabki qadamlari davridagi quvonch yoki qiyinchiliklar maktab jamoasi va oliy o'quv yurtining hamkorligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonini chuqur tahlil qilish, undagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash asosida oliy o'quv yurtidagi pedagogik jarayonga o'zgartirishlar kiritish yuqori malakali maktab talablariga javob beradigan kadrlarni tayorlash mezoni bo'lib xizmat qiladi. Shu narsani unutmaslik kerakki, amaliyotchi talabaning pedagogik amaliyotiga kirishishi uning inson sifatida hayotida maqomining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Oliy o'quv yurtida u talaba edi, bugun maktabda o'qituvchi-tarbiyachi. Uning bunday tarzda insonni maqomining o'zgarishi o'ziga va kishilarga munosabatini ham keskin o'zgarishiga olib keladi.

1.3.Amaliyot dasturlari tanlangan yo‘nalish (ixtisoslik)ning malakaviy talablari, korxona, muassasa, tashkilotlarning (bundan buyon - amaliyot ob’ektlari) tavsifi hisobga olingan holda tegishli o‘quv muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va ularni oliy o‘quv yurtlari rektori tasdiqlaydi.

### 2.Amaliyotni tashkil qilish va unga rahbarlik

2.1. Talabalar amaliyoti oliy ta’lim muassasalarining davlat va aksiyadorlik korxonalari, muassasa, tashkilot, firma, qo‘shma korxonalar va boshqalar bilan tuzgan shartnomalari asosida tashkil qilinadi.

2.2. Yuridik shaxslar bilan tuzilgan kontrakt asosida o‘qiydigan talabalar amaliyot o‘tish uchun tegishli amaliyot ob’ektlariga yuboriladilar.

2.3. Amaliyotni tashkil qilish va o‘tkazish uchun javobgarlik oliy o‘quv yurtining rektori zimmasiga yuklanadi.

2.4. Amaliyot joylari, talabalarning katta guruhlari o‘tishini hisobga olib, oliy ta’lim muassasasi yaqinida joylashgan amaliyot ob’ektlaridan tanlanadi.

Mazkur tayanch joyda talabalar amaliyot o‘tadigan korxona yo‘q bo‘lsa, amaliyot ob’ektlari sifatida oliy ta’lim muassasasiga yaqin joylashgan korxonalardan foydalaniladi.

Ikki tomonlama bitimlar asosida amaliyotni xorijiy davlatlar korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida o‘tish mumkin.

2.5. Oliy o‘quv yurtlari:

- har yili, 1 dekabrdan kechikmagan holda, navbatdagi kalendar yili uchun amaliyot ob'ektlari bilan shartnomalar tuzadi. Amaliyot boshlanishidan ikki oy oldin talabalar amaliyotini o'tkazish dasturi va kalendar jadvalini amaliyot ob'ektlari bilan kelishib oladi;

- amaliyot rahbari tajribali professor, dotsent va o'qituvchilardan tayinlanadi;

- fan, texnika va madaniyatning eng yangi yutuqlari, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, uni ilmiy tashkil etish, boshqarish va shunga o'xshash masalalar bo'yicha amaliyot ob'ektlari ma'muriyati bilan birgalikda mutaxassislarning ma'ruzalarini tashkil etadi;

- talabalar va amaliyot ob'ektlarini amaliyot dasturlari bilan ta'minlaydi;

- ob'ektlardagi talabalar amaliyotining tashkil etish tartibi va o'tkazilishini hamda amaliyot muddati va mazmuniga rioya qilinishini nazorat etadi.

2.6. Oliy o'quv yurti tayinlagan amaliyot rahbari:

- talabalar kelishiga zaruriy tayyorgarlik tashkil etish uchun ob'ektlarga amaliyot boshlanishidan oldin boradi;

- talabalarning amaliyotga borishidan oldin tashkiliy tadbirlar (amaliyot o'tkazish tartiblari, xavsizlik texnikasi haqida ko'rsatmalar berish va h.k.) ni o'tkazishni ta'minlaydi;

- talabalarning kafedra topshiriqlarida ko'zda tutilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qiladi;

- amaliyot ob'ektlari talabalarning mehnat va maishiy xizmat sharoitlari me'yordagidek ta'minlanganligini nazorat qiladi;

- talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi;

- amaliyot yakunlari bo'yicha talabalar ilmiy anjumanlari tayyorlanishida va amaliyot natijalarini baholovchi komissiya ishida ishtirok etadi;

- talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi, ularning ishi haqida tavsiyanoma beradi. Talabalar amaliyot o'tganligi, ularning amaliy tayyorgarligida kamchiliklar ko'rsatilgan amaliyotni takomillashtirish haqida takliflar kiritilgan yozma hisobotnikafedra mudiriga taqdim etadi;

- barcha ishlarni amaliyot ob'ekti tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birgalikda o'tkazadi.

2.7. Talabalar amaliyotining umumiy rahbarligi amaliyot ob'ekti rahbarining buyrug'i bilan mas'ul xodimlarning biriga yuklatiladi.

Sex, bo'lim, laboratoriya kabilarda talabalar amaliyotining bevosita rahbarligi amaliyot ob'ekti boshlig'ining buyrug'i bilan ko'rsatilgan tarkibiy bo'limning yuqori malakali mutaxassisi zimmasiga yuklanadi.

2.8. Shartnoma majburiyatlariga muvofiq amaliyot ob'ektlari:

- talabalar amaliyotini amaliyot dasturi va mazkur Nizomga muvofiq tashkil qiladi va o'tkazadi;

- dasturga muvofiq talabalar amaliyot o'tkazishining samaradorligini ta'minlovchi ish joylari bilan ta'minlaydi;

- talabalar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bo'sh ish joylari mavjudligida, amaliyotchilarni tegishli ish haqi bilan lavozimlarga qabul qiladi;

- amaliyotni o‘tishda oliy ta’lim muassasasi bilan kelishilgan oy-kunlik ish jadvaliga amal qiladi;

- talabalarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini beradi;

- kurs ishi va malakaviy bitiruv ishlari uchun mavzular tanlashda yordam ko‘rsatadi;

- hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha majburiy ko‘rsatmalar beradi, zarur bo‘lgan hollarda talabalarni mehnatning xavfsiz usullariga o‘rgatadi va bu haqda hujjatlar rasmiylashtiriladi;

- amaliyotchi talabalarning mazkur amaliyot ob’ektida joriy qilinganichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini ta’minlaydi va nazorat qiladi;

- yaqin atrofda joylashgan boshqa korxona, muassasa, tashkilotlarga birgalikda tashriflar o‘tkazadi;

- talabalarning amaliyot o‘tish vaqtida mazkur amaliyot ob’ektining tegishli ishchilari uchun joriy qilingan shaxsiy himoya vositalari va maxsus ovqat, poyabzal, himoya kiyimlari bilan ta’minlaydi;

- shartnoma asosida talabalar yashashi uchun qulay sharoitli yotoqxonalar bilan ta’minlaydi. Zarur bo‘lganda ularni joylashtirish uchun turar joylarni ijaraga oladi;

- zarur bo‘lgan hollarda, ichki mehnat intizomini buzgan amaliyotchi talabalarga amaliyot ob’ekti rahbarining buyrug‘i bilan jazo choralari ko‘radi va bu haqda oliy ta’lim muassasasi rektoriga xabar qiladi;

- amaliyot o‘tayotgan talabalar baxtsiz hodisaga uchragan holda to‘la javobgarlikni oladi.

2.9. Talaba amaliyot o‘tishda:

- amaliyot dasturida ko‘zda tutilgan topshiriqlarni to‘liq bajarishi;

- amaliyot ob’ektining ichki mehnat tartib qoidalariga bo‘ysunishi;

- mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o‘rganishi va qat’iy rioya qilishi;

- bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu korxona ishchilari qatori javobgarlik olishi;

- kundalik daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi;

Amaliyot rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berishi va amaliyot bo‘yicha sinov topshirishi shart.

**3. Amaliyot natijalarini yakunlash**

3.1. Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita amaliyot ob’ektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga oliy ta’lim muassasasidan tayinlangan rahbarga topshiradi. Hisobot talabaning amaliyot davrida bajargan muayyan ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, amaliyot ob’ekti bo‘limlarining qisqacha izohi (sex,bo‘lim, laboratoriya va boshqalar), ular faoliyatining tashkil qilinishi, hayot faoliyatining xavfsizligi to‘g‘risidagi masalalar, amaliyot natijalari bo‘yicha xulosa va takliflarni o‘z ichiga olishi lozim.

3.2. Amaliyot yakunida talaba o‘z hisobotini oliy ta’lim muassasasi tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi.

Komissiya tarkibiga o‘tilayotgan amaliyot fanini olib boruvchi o‘qituvchi, oliy ta’lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar va imkoni bo‘lsa, amaliyot ob’ektidan tayinlangan rahbar ham kiritiladi.

Amaliyot natijasi bahosi talabaning kursdan o‘tishi va stipendiya belgilashda hisobga olinadi.

Amaliyot yakuni oliy ta’lim muassasasining ilmiy-uslubiy anjumani va amaliyot ob’ektining ishlab chiqarish kengashida muhokama qilinadi.

Oliy ta’lim muassasasi va fakultet ilmiy kengashida amaliyotning natijalariga yakun yasaladi.

3.3. Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz yoki hisobot himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba ta’til vaqtida o‘z hisobidan qayta amaliyot o‘tishga jo‘natiladi.

Ayrim hollarda, bunday talabaning kelgusida oliy ta’lim muassasasida o‘qishi mumkinligi masalasi rektor tomonidan ko‘rib chiqiladi.

## OLIY O‘QUV YURTI TAYINLAGAN AMALIYOT RAHBARI:

- talabalar kelishiga zaruriy tayyorgarlik tashkil etish uchun ob’ektlarga amaliyot boshlanishidan oldin boradi;
- talabalarning amaliyotga borishidan oldin tashkiliy tadbirlar (amaliyot o‘tkazish tartiblari, xavfsizlik texnikasi haqida ko‘rsatmalar berish va h.k.)ni o‘tkazishni ta’minlaydi;
- talabalarning kafedra topshiriqlarida ko‘zda tutilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qiladi;
- amaliyot ob’ektlari talabalarning mehnat va maishiy xizmat sharoitlari me’yordagidek ta’minlanganligini nazorat qiladi;
- talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi;
- amaliyot yakunlari bo‘yicha talabalar ilmiy anjumanlari tayyorlanishida va amaliyot natijalarini baholovchi komissiya ishida ishtirok etadi;
- talabalarning amaliyot bo‘yicha hisobotini ko‘rib chiqadi, ularning ishi haqida tavsiyanoma beradi. Talabalar amaliyot o‘tganligi, ularning amaliy tayyorgarligidagi kamchiliklar ko‘rsatilgan amaliyotni takomillashtirish haqida takliflar kiritilgan yozma hisobotni kafedra mudiriga taqdim etadi;
- barcha ishlarni amaliyot ob’ekti tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birgalikda o‘tkazadi.

2.7. Talabalar amaliyotining umumiy rahbarligi amaliyot ob’ekti rahbarining buyrug‘i bilan mas’ul xodimlarning biriga yuklatiladi.

Sex, bo‘lim, laboratoriya kabilarda talabalar amaliyotining bevosita rahbarligi amaliyot ob’ekti boshlig‘ining buyrug‘i bilan ko‘rsatilgan tarkibiy bo‘limning yuqori malakali mutaxassisi zimmasiga yuklanadi.

## KUNDALIK YURITISh QOIDASI:

7.1 Amaliyotni o‘tash davomida kundalik talabaning asosiy hujjati.

7.2. OO‘Yu joylashgan shahardan tashqarida amaliet o‘tayotgan talaba uchun kundalik komandirovka guvohnomasi hisoblanadi va talabaning qancha muddat amaliyot o‘taganini bildiradi.

7.3. Amaliyot davrida talaba xar kuni takvimli reja buyicha kun buyi bajargan ishlarini kundalikka  kiskacha yozib borishi kerak.

7.4. Talaba xaftada bir marta kundalikni tekshirish uchun raxbariga takdim etishi shart. Rahbar kundalikni tekshirib kamchilikni ko‘rsatadi, navbatdagi topshiriqni beradi hamda talabaning faoliyatini nazorat qilayotganligini qayd etadi.

7.5. Amaliyot tugaguncha talabaning kundaligi hisoboti bilan amaliyot rahbarlari tomonidan tekshiriladi va xulosa yozilib, imzo chekiladi.

7.6. Talaba amaliyot tugagach to‘ldirilgan kundalikni hisobot bilan birgalikda Psixologiya kafedrasiga topshirishi shart.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“Tasdiqlayman”**
**Pedagogika fakulteti dekani**
**E.M.Muxtorov _____________**
**“____ ” _____________ 2020 y**

# MALAKAVIY AMALIYOTNI O‘TASh BO‘YIChA I Sh Ch I D A S T U R

**MALAKAVIY AMALIYOTNING HAMKOR TAShKILOTLARI**

| | |
|---|---|
| ______________________________<br>______________________________<br>______________________________<br>______________________________<br>______________________________<br>______________________________<br><br>**«______» ______________2020 y** | **Buxoro davlat universiteti**<br>**Pedagogika fakultet**<br>___________________________________<br><br>**«______» ____________2020 y** |

**TALABANING**

1. **FAMILIYASI: ______________________________________________**
2. **ISMI: ________________________________________**
3. **ShARIFI: ________________________________________**
4. **MALAKAVIY AMALIYOTGA BORAYOTGAN TAShKILOT NOMI ______________________________________________________________**

**Amaliyotchining ishchi**
**DASTURI**

| HAFTA KUNI | | REJALAShTIRILGAN ISh | KUTILAYOTGAN NATIJALAR |
|---|---|---|---|
| 1 | Dushanba | – Amaliyotga chiqayotgan talabalar bilan konferensiya o‘tkazish<br>– Talabalarga amaliyotchi o‘qituvchilarni biriktirish<br>– Amaliyot o‘tashga yo‘llangan tashkilot bilan tanishuv<br>– Amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish | – Konferensiya davomida talabalar amaliyot o‘tash joyi bilan tanishadi.<br>– Biriktirilgan uslubshunoslar malakaviy amaliyot maqsadi, uni o‘tash tartibi, hujjatlarni rasmiylashtirish talablari, umumiy faoliyat qoidalari muhokama etiladi.<br>– Amaliyotchi o‘qituvchilar talabalar soni va joylashishiga qarab, yillik yuklama asosida biriktiriladi.<br>– Malakaviy amaliyot o‘tash joyi, rahbariyati va tashkilot tomonidan belgilangan xodim biriktiriladi.<br>– Amaliyot hujjatlar rasmiylashtirish ishlari boshlanadi. |
| | Seshanba | – Malakaviy amaliyot o‘tash tashkilotida belgilangan bo‘limlar bilan tanishuv.<br>– Tashkilotga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va amaliyot kundaligiga kiritib borish. | – Soha mutaxascisligi munosabati asosida amaliyotchi atrof muhit bilan ijtimoiy aloqani (kontakt) o‘rnatadi<br>– Amaliyotchi tashkilotga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishadi va amaliyot kundaligini to‘ldirib boradi. |
| | Chorshanba<br>Payshanba | – Tashkilot xususiyatidan kelib chiqib birlamchi tadqiqotlar metodikasi va dasturlarini kelishib olish | – Amaliyotchi tashkilot xususiyatidan asosida birlamchi psixologik, sotsiologik tadqiqotlar metodikasi va dasturlarini tuzishni tashkil etadi. |
| | Juma | | |

| HAFTA KUNI | | REJALAShTIRILGAN ISh | KUTILAYOTGAN NATIJALAR |
|---|---|---|---|
| | Shanba | – Mutaxascislikdan kelib chiqib ijtimoiy muhitni o‘rganish (pilotaj tadqiqot) | – Amaliyotchi talaba o‘z mutaxascislik sohasidan kelib ijtimoiy muhitni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni real holatda sinaydi, birlamchi ma’lumotlarni umumlashtiradi. |
| 2 | Dushanba | – Shaxs xususiyatlari, shaxs va guruh, jamoaning psixologik va ijtimoiy psixologik tavsifini<br>– Aniq sotsial muammolar bo‘yicha empirik tadqiqotlarni tayyorlash jarayoni mexanizmlari shakllantirish | – Amaliyotchi talaba kompitentlik darajasidan kelib chiqib tashkilotda shaxs va jamoaning psixologik va ijtimoiy psixologik tasnifini tayyorlaydi.<br>– Tashkilot xsusiyatidan kelib chiqib amaliyotchi aniq ijtimoiy muammolar yuzasidan amaliy tadqiqotlar tayyorlash mexanizmlarini shakllantiradi va mustaqil tadqiqotlar dasturini tuzadi. |
| | Seshanba | | |
| | Chorshanba | | |
| | Payshanba | | |
| | Juma | – Olingan ma’lumotlarni to‘plash va ma’lumotlar bazasini yaratish | – Amaliyotchi talaba hafta mobaynida olib borgan tadqiqotlar asosida to‘plagan ma’lumotlar bazasini shaklantiradi<br>– Hafta mobaynida qilingan ishlarni amaliyot kundaligiga kiritib boradi. |
| | Shanba | | |
| 3 | Dushanba | – Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mazmunga ega sotsial muammoni tadqiqot ob’ekti sifatida tanlay olish<br><br>– Psixologik hodisalarni o‘rganish uchun ob’ektni tanlay olishi va konsepsiyalarini bilishi | – Tashkilot xususiyatidan kelib chiqib amaliyotchi talaba ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mazmunga doir ijtimoiy muammoni tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganadi<br>– Psixologik xodisalar ob’ektini amaliyot rahbari bilan muhokama qilib umumiy mikro iqlimni yaxshilashga qaratilgan amaliy metodikalarni tanlaydi va aprobatsiyadan o‘tkazadi. |
| | Seshanba | | |
| | Chorshanba | | |
| | Payshanba | | |

| HAFTA KUNI | | REJALAShTIRILGAN ISh | KUTILAYOTGAN NATIJALAR |
|---|---|---|---|
| | Juma | – Olingan ma'lumotlarni to'plash va ma'lumotlar bazasini yaratish | – Amaliyotchi talaba hafta mobaynida olib borgan tadqiqotlar asosida to'plagan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi<br>– Hafta mobaynida qilingan ishlarni amaliyot kundaligiga kiritib boradi |
| | Shanba | | |
| 4 | Dushanba | – Shaxs faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni tahlil etish usullarini bilishi va ulardan foydalana olishsh<br>– Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar materiallaridan mustaqil tarzda foydalanish | – Talabalar o'quv jarayonida olingan nazariy bilimlarni turli metodika va tadqiqotlar asosida amaliyotga joriy etishadi<br>– O'quv jarayonida olingan nazariy bilmlar asosida sotsiologik va psixologik |
| | Seshanba | | |
| | Chorshanba | | |
| | Payshanba | | |
| | Juma | – Olingan ma'lumotlarni to'plash va ma'lumotldar bazasini yaratish | – Amaliyotchi talaba hafta mobaynida olib borgan tadqiqotlar asosida to'plagan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi<br>– Hafta mobaynida qilingan ishlarni amaliyot kundaligiga kiritib boradi |
| | Shanba | | |
| 5 | Dunshanba | – Tashkilot ob'ekti jamoasiga psixologik xizmat ko'rsatish chora-tadbirlarni amalga oshirish;<br>– Mavjud nazariy bilimlar asosida aniq sotsiologik ob'ektlarga kompleks tavsiflarni bera olishni bilishi va ulardan foydalana olishi | – Tashkilot ob'ekti jamoasiga psixologik xizmat ko'rsatish chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan dastur ishlab chiqadi<br>– Tashkilotlar ob'ektida mavjud shaxslar va guruhlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatadi. |
| | Seshanba | | |
| | Chorshanba | | |
| | Payshanba | | |
| | Juma | – Olingan ma'lumotlarni to'plash va ma'lumotlar bazasini yaratish | – Amaliyotchi talaba hafta mobaynida olib borgan tadqiqotlar asosida to'plagan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi<br>– Hafta mobaynida qilingan ishlarni amaliyot kundaligiga kiritib boradi |
| | Shanba | | |

| HAFTA KUNI | | REJALAShTIRILGAN ISh | KUTILAYOTGAN NATIJALAR |
|---|---|---|---|
| 6 | Dushanba | – Psixologik va sotsiologik tadqiqot metodlarini mustaqil tanlab olish va ularni tatbiq etish<br>– Ijtimoiy hayotning dolzarb sotsial muammolarini aniqlash; | – Psixologik metodikalarni tashkilot xususiyatidan kelib chiqib saralaydi va tasniflaydi.<br>– Sotsiologik metodlar asosida ijtimoiy hayotni dolzarb masalalari yuzasidan “Ijtimoiy guruhlar” o‘rtasida aqliy hujum metodi orqali jamoatchilik fikrini o‘rganish mexanizmlarini ishlab chiqadi. |
| | Seshanba | | |
| | Chorshanba | | |
| | Payshanba | | |
| | Juma | – Hafta oralig‘ida yig‘ilgan ma’lumotlarni qayta ishlash va ma’lumotlar bazasini kengaytirib borish | – Amaliyotchi talaba hafta mobaynida olib borgan tadqiqotlar asosida to‘plagan ma’lumotlar bazasini kengaytiradi<br>– Hafta mobaynida qilingan ishlarni amaliyot kundaligiga kiritib boradi<br>– Kelayotgan haftada qo‘llanilishi kerak bo‘lgan metodlar kelishib oladi |
| | Shanba | | |
| 7 | Dushanba | – Tadqiqot natijalarini qayta ishlash va ularni psixologik yoki sotsiologik jihatdan tavsiflash; | – To‘plangan birlamchi ma’lumotlarni amaliyotchi o‘z mutaxasisligi xususiyatidan kelib chiqib tavsiflaydi. |
| | Seshanba | | |
| | Chorshanba | – Zamonaviy kompyuter texnikasidan unumli foydalanish; | – Amaliyotchilarni uslubshunoslar nazoratida mehnat sharoitida zamonaviy kompyuter texnikasidan unumli foydalanish samaradorligini tekshiradi. |
| | Payshanba | | |
| | Juma | – Hafta oralig‘ida yig‘ilgan ma’lumotlarni qayta ishlash va | – Amaliyotchi talaba hafta mobaynida olib borgan tadqiqotlar asosida to‘plagan |

<table>
<tr><th colspan="2">HAFTA KUNI</th><th>REJALAShTIRILGAN ISh</th><th>KUTILAYOTGAN NATIJALAR</th></tr>
<tr><td></td><td>Shanba</td><td>ma’lumotlar bazasini kengaytirib borish</td><td>ma’lumotlar bazasini kengaytiradi<br>– Hafta mobaynida qilingan ishlarni amaliyot kundaligiga kiritib boradi<br>– Kelayotgan haftada qo‘llanilishi kerak bo‘lgan metodlar kelishib oladi</td></tr>
<tr><td rowspan="6">8</td><td>Dushanba</td><td rowspan="2">– Statistik materiallar va ma’lumotlarni qayta ishlay olish;</td><td rowspan="2">– Talabalar tashkilot xususiyatidan kelib chiqib statistik materilallar va ma’lumotlarni qayta ishlash amaliyotini o‘rganishadi.</td></tr>
<tr><td>Seshanba</td></tr>
<tr><td>Chorshanba</td><td rowspan="2">– Psixologik va Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish<br>– Amaliyot o‘tayotgan tashkilotda tadqiqotlar natijalarini umumiy yig‘ilishda prezintatsiya qilish</td><td rowspan="2">– Talabalar biriktirilgan uslubshunoslar bilan Psixologik va Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtiradi<br>–<br>–</td></tr>
<tr><td>Payshanba</td></tr>
<tr><td>Juma</td><td colspan="2" rowspan="2">– malakaviy amaliyot o‘tash tartibi asosida hujjatlarni rasmiylashtirish<br>– Tashkilot tavsifnomasini olish<br>– Talabaning ishi bo‘yicha malakaviy amaliyot rahbarining xulosasi olish</td></tr>
<tr><td>Shanba</td></tr>
</table>

## IShChI DASTURDA AMALIYOTChI TALABA TAShKILOT XUSUSIYATIDAN KELIB ChIQIB O‘TKAZGAN PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR TO‘G‘RISDA

## IZOH

| TADQIQOT KO‘RINIShI | TADQIQOT YuZASIDAN TAFSILOT |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

## MALAKAVIY AMALIYOT HISOBOTI VA YAKUNLARINI RASMIYLAShTIRISh:

***1. Yozma hisobot (10-15 saxifada belgilangan tartib asosida) alohida ochilgan umumiy daftarda to'ldiriladi. Unda quyidagi jarayonlar o'z aksini topishi shart:***

– Amaliyot rejasi;

– Tashkilot faoliyatiga oid me'yoriy huquqiy hujjatlar, sohani rivojlantirishga doir qarorlar tahlili

– Amaliyot o'tayotgan tashkilot haqida tafsilot;

– Ixtisoslik yo'nalishi bo'yicha tafsilot;

– Amaliyot davrida ko'p kuzatilgan kamchiliklar va ularni bartaraf qilishga oid fikrlar va takliflar;

– Umumiy xulosalar.

## O’QUVChINI O’RGANISh ASOSIDA SINF RAHBARI QO’LLAYDIGAN PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TADBIRLAR.

1. O’quvchi xulq-atvoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak? .....

2. O’quvchilarda qanday xislatlar bor, ularni qanday qilib rivojlantirish va takomillashtirish lozim?

5.2. O’quvchi shaxsiga tuziladigan psixologik—pedagogik tavsifnomasining taxminiy sxemasi.

____________________________________________ o’quvchisi
(ta’lim muassasasining to’liq nomi)
ga _______________________o’quv yili uchun tuzilgan

**T A V S I F N O M A:**

1. O’quvchi haqidaga umumiy ma’lumot (yoshi, sog’lig’i, "Bolalar" va "Kamolot" boshlang’ich tashkilotlariga mansubligi).

2. O’quvchining oilaviy tarbiya sharoitining tavsifnomasi (oiladagi madaniy — maishiy sharoit, oiladagi o’quvchiga munosabat, tarbiya haqida g’amxo’rlik).

3. O’quvchi a’zo bo’lgan sinf jamoasining tavsifnomasi (sinf faollari, jamoatchilik ishlariga va ijtimoiy — foydali mehnatga munosabati, davomat va intizom, jamoadagi shaxslararo munosabatlar, muhabbat va nafrat, do’stlik, o’rtoqlik, jamoaviylik, bolalar jamoasining anqanalari tizimi).

4. O’quvchining jamoa bilan munosabati (jamoa a’zosi bo’lish uchun ehtiyoj: jamoa fikri bilan hisoblashishi, uning sharafi uchun kurashishi, o’quvchining jamoadagi obro’si, boshqa kishilarni tushunishi va dilkashligi, jamoadagi salbiy ijtimoiy—psixologik ko’rinishlarga, ko’chirmachilikka, aytib turishlarga, hammaning bir-biriga kafilligiga, hasadchilarga nisbatan munosabati).

5. Shaxsning yo’nalishi. O’quvchining shaxsiy, ijtimoiy yo’nalishi: layoqati, qiziquvchanligi, uning ko’lami va kengligi, turrunligi va harakatchanligi, yanada chuqurroq bilishga oid qiziqishlari, maslak va qarashlari, axloq va farosat birligi, o’quvchilarning intilishi, niyagi, orzusi.

6. O’quvchilar uchun hos bo’lgan imkoniyatlarni baholash, o’z-o’ziga talabchanlik darajasi, o’qituvchi va o’rtoqlarining tanqidiy fikrlariga munosabati, o’quvchining o’z - o’zini tarbiyalashga bo’lgan intilishi va uning faoliyatining turli ko’rinishlarida yuzaga chiqishi.

7. O’quvchi faoliyatining turli ko’rinishlari. O’quvchining o’qishga munosabati, topshirilgan ishni muvaffaqiyatli bajarishi, qiziqish bilan o’qishi, o’qishni xohlamasligining motivlari, qanday baholar olishga qodirligi, o’zlashtirishi, intizomi, mehnat faoliyatiga munosabati, kasb turlari haqida tushunchasi, kasb tanlashga munosabati.

8. Bilishga oid faoliyatlarning tavsifnomasi: - zehni, kuzatuvchanligi, xotira xususiyatlari, xotira tiplari, diqqatini to’play olishi; ijodkorligi, yaratuvchanligi, fikrlar muvofiqligi, obrazi va mavhum tafakkurning o’sish darajasi, tafakkurning tizimliligi va tanqidiyligi, O’z fikrini bayon etishda dadilligi va izchilligi, fikrlash,

fikr yuritishi, xulosa chiqara olishi; xulosalarining mustaqilligi, og'zaki va yozma nutqda o'z fikrini bayon eta bilishi.

9. Emotsional - erkinlik sferasining xususiyatlari, O'quvchining emotsional tashvishlarining tashqi ko'rinishi, muvaffaqiyatsizlikda va chorasiz holatlarda emotsional chidamliligi, emotsional tashvishlarni pinhon tuta olishi va ularni o'zgartira biliish.

10. Qobiliyat. Qobiliyat turlari. O'quvchining ko'zga tashlangan qobiliyatlari (musiqaga, matematikaga, tashkilotchilikka va h.k.) va ularning tavsifnomasi.

11. Temperament. O'qishga ishtiyoq munosabatlarida ko'rinadigan xarakter xususiyatlari: faollik, intizomlilik va shunga taalluqli boshqa ko'rinishlar. Sinf va ta'lim muassasasiga nisbatan munosabatda ko'rinadigan xarakter xususiyatlari: o'z sinfi yoki ta'lim muassasasining muvaffaqiyati yoki muvaffaq munosabati, ta'lim muassasasi va sinf sharafi uchun, ta'lim muassasasi va sinfda o'tkazilgan tadbirlarga munosabati va h.k. O'z-o'ziga nisbatan munosabatida ko'rinadigan xarakter xususiyatlari: kamtarlik, axloqiy poklik, odamiylik, insonparvarlik, uyatchanlik, manmanlik va boshqalar.

12. Jamoa orqali tarbiyalash bo'yicha amaliyotchi — talaba nima ishlarni qildi?

13. Pedagogik xulosalar.

O'quvchilar bilan olib borilgan tarbiyaviy ishga pedagogik rahbarlik qilish imkoniyatlarini ko'rsatish. O'quvchini tarbiyalashning istiqbol yo'nalishlarini belgilash va nimalarga e'tiborni qaratish zaruriyati haqida tavsiyalar berish.

**Sinf o'quvchilar jamoasini o'rganishning namunaviy dasturi**

**1. SINF TARKIBI.**

1. Sinfning yosh jihatdan tarkibi.
2. O'quvchilarning bilish darajasi va kamoloti.
3. O'quvchilarning ish qobiliyati va o'zlashtirishi.
4. Sinfning jamoa qiyofasi (sinfda faol bormi?). Jamoat ishlariga qiziqishi. Jamoat topshirig'ining bajarilishi. O'quvchilarning g'oyaviy - siyosiy yo'nalishi, ongliligi.

**2. SINFNING JIPSLIGI.**

1. Ish manfaatlari birlashgan guruhlar yoki salbiy xarakterdagi guruhbozlik bormi? O'quvchilar bir-biriga nisbatan qanday munosabatda bo'ladilar? Ularning sinf ishiga munosabati qanday?
2. O'quvchilar o'quv yurtda va o'quv yurtdan tashqari joylarda vaqtlarini birga o'tkazishni yaxshi ko'radilarmi? Ular birgalikda ko'ng'il ochishni yoki birgalikda mehnat qilishni sevadilarmi?
3. Qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasida do'stlik bormi?
4. Bolalar o'z jamoasi a'zolarini himoya qiladilarmi?
5. Sinfdagi o'quvchilar bir-birlarining ayblarini yashirishadimi? Agar shunday bo'lsa, bu nimalarda ifodalanadi?
6. O'quvchilar o'z sinflari muvaffaqiyatidan yoki muvaffaqiyasizligidan tashvishlanadilarmi? O'z jamoalari uchun jon kuydirishadimi?
7. O'quv yurti bo'yicha tadbirlarini o'tkazishda ular birga bo'ladilarmi yoki tarqoq holda qatnashadilarmi?

### 3. SINFNING UYUShQOQLIGI.

1. O'quvchilar jamoa ishlarini bajarish uchun uyusha oladilarmi? Ular ishlarni o'zaro taqsimlab olib, uni unumli tarzda bajara oladilarmi?

2. O'quvchilar bir-birlarini chidam bilan va e'tibor bilan tinglay oladilarmi? (majlislar, tanaffuslar, turli xil ishlarni bajarishda).

3. Vakolatli shaxslarning topshiriqlariga ular bo'ysunadilarmi?

### 4. SINF JAMOATChILIK FIKRI.

1. O'quvchilar o'z o'rtoqlarining qanday hatti—harakatlarini maqullaydilar? qaysi hatti — harakatlarini qoralaydilar?

2. Ular o'rtoqlarining hatti-harakatlarini maqullaganliklarini va maqullamaganliklarini qanday va qay tarzda ifodalaydilar?

3. O'quvchilarning gaplari bilan qilayotgan ishlari orasida nomuvofiqlik bormi?

4. Sinfda tanqid va o'z - o'zini tanqid mavjudmi?

### 5. JAMOADA O'RTOQLARChA MUNOSABATLARNING XARAKTERI.

1. O'quvchilarni bir - birlarini nimalar bog'lab turadi: umumiy bir joyda yashash, partada birga o'tirish, qiziqishlari, umumiy ish.

2. O'quvchilar qayerda bir-birlari bilan do'stlashib yuradilar: faqat o'quv yurtida yoki o'quv yurtidan tashqarida hammi?

3. Ular o'z o'rtoqlariga e'tiborlimi? Ularga yordam berishga harakat qiladilarmi? Bu yordamlar nimalarda ifodalanadi?

4. O'quvchilar o'z o'rtoqlaridagi talabchanlik qiladilarmi? Ular o'z o'rtoqlaridag'i kamchiliklarini ko'ra biladilarmi?

5. Sinf to'polonchilariga, aqlochilariga, faollariga, o'zlashtirmayotganlarga qanday munosabatda bo'ladilar?

6. O'quvchilar jismoniy kamchiligi bo'lgan o'rtoqlariga to'g'ri munosabatda bo'lishadimi?

### 6. SINF FAOLLARI.

1. Faollar tarkibi.

2. Sinfning maxsus (saylab qo'yilgan) va amaldagi faollari, ya'ni sinfning rasmiy va norasmiy liderlari.

3. O'quvchilar jamoasida sinf faollarining izzat-obro'si bormi?

4. O'quvchilar sinf faollarining topshiriqlarini bajaradilarmi?

5. Faollar o'z sinfdosh o'rtoqlariga qanday munosabatda bo'ladilar?

6. Sinf faollari tarkibida doimiy bo'ladigan o'quvchilar bormi?

7. Sinf jamoasidai yetishib chiqqan o'quv yurti bo'yicha faollar sinf hayoti bilan qiziqishadimi, sinf jamoasiga yordam ko'rsatishadimi? Ular sinf jamoasidan ajralib qolishmaydimi? Ularni hurmat qilishadimi?

### 7. SINF JAMOASINING O'QUV YURTI JAMOASI BILAN ALOQASI.

1. O'quvchilar sinfda, boshqa sinflarda va o'quv yurtida qanday voqealar bo'layotganini bilishadimi?

2. Sinfda o'quv yurti hayotini yaxshilashga doir takliflar kiritiladimi, fikr - mulohazalar aytiladimi?

3. Sinf o'quv yurti bo'yicha topshiriqlarini (doimiy yoki vaqtinchalik

topshiriqlarni) bajaradimi?

4. Sinfdagi o'quvchilarning boshqa sinflar bilan aloqasi qanday? (otaliq qilishi, musobaqalashishi, birgalikda ishlab borishi).

5. Sinf o'quv yurti ishlarida qanday ishtirok etadi?

## 8. SINF JAMOASINI YANADA JIPSLAShTIRIShGA DOIR TADBIRLAR.

1. Sinf jamoasini jipslashtirish va tashkil etish maqsadida qanday pedagogik tadbirlar o'tkazish lozim?

2. Alohida o'quvchilarga pedagogik ta'sir, o'tkazish uchun sinf jamoasidan qanday foydalanmoq kerak?

5.4. Sinf o'quvchilar jamoasining psixologik-pedagogik tavsifnomasini tuzish uchun taxminiy sxema.

1. O'quv yurtining jamoa sifatidagi tavsifnomasi. Tarbiyaviylik, intizomlilik, davomat saviyasi. O'quv yurtining jamoatchilik bilan aloqasi. O'quv yurtining sinf va sinf jamoasiga ta'siri,

2. Sinf jamoasining tarkibi, faollari, jamoa e'tiboriga loyiq yetakchilar, sardorlar, o'quvchilarning qisqacha tavsifnomasi.

3. Sinf jamoasi o'qish faoliyatining tashkil etishning umumiy tavsifnomasi.

4. Sinf jamoasining jipsligi va uyushqoqligining tavsifnomasi.

5. Sinf jamoasining ijtimoiy foydali mehnatdagi ishtiroki.

6. Sinfdagi intizom ahvoli, o'quvchilar qoidasiga, axloq va etik me'yorlarga amal qilish darajasi. Axloq malakasi va ko'nikmalarining shakllanganligi.

7. O'quvchilarning talablari va ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari.

8. Sinfda jamoatchilik fikri va o'rtoqlarga munosabatning xarakteri.

9. Ayrim o'quvchilarning jamoa a'zosi sifatidagi tavsifnomasi. O'quvchi ijtimoiy mavqeining tahlili (jamoatchi, sportchi, badiiy havaskorlik to'garagida ishtirok etishi va h.k.)

10. Ijtimoiy muhitning, ota-onalar va jamoatchilikning sinf jamoasini shakllanishiga, jipslashuviga ta'siri.

11. O'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va ular xarakteridagi jamoaviylik xususiyatlarini tarkib toptirish maqsadida amaliyotchi - talabalar sinfda qanday ishlarni amalga oshiradilar.

12. Sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ish mazmuni, uni tashkil etish va u haqdagi takliflarni o'qituvchi, ota-onalar, o'qituvchilarning jamoatchilik tashkilotlari tomonidan hal etilishi.

4§. Pedagogik amaliyot davridagi o'quv - tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

O'quvchilarni o'rganish bo'yicha muvaffaqiyatli ish talaba tomonidan amaliyot davomida mo'ljallangan o'quv-tarbiyaviy ishni rejalashtirishning asosi hisoblanadi.

Har bir talaba 3-4 kurslarda o'quv yurtiga borgan dastlabki haftada o'qituvchilarning darslarini rejalashtirishini o'rganadi, o'ziga biriktirib qo'yiladigan sinf rahbarining, "Bolalar" va "Kamolot" boshlang'ich tashkilotining tarbiyaviy ish rejasi bilan tanishib chiqadi, aniq ta'limiy- tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda bu rejalar qanday yordam berishini anglab oladi.

Sinf rahbarining rejasini o'rganish hamda tahlil qilish amaliyotchiga sinf va

ayrim o’quvchilarning xususiyatlarini bilib olish, bo’lajak davr uchun mo’ljallangan tarbiyaviy vazifalar, sinf rahbarining mazkur o’quvchilar jamoasi bilan ishlashining asosiy usuli va shakllari bilan tanishishda yordam beradi.

Ishni amaliyotning butun davriga rejalashtirish bilan bir qatorda haftalik, oylik ish rejasi tuzib olish ham foydadan xoli emas.

Amaliyotning ikkinchi haftalasi oxiriga kelib, har bir talaba butun amaliyot davriga mo’ljallangan o’zining individual ish rejasini tuzib chiqadi. Bundan tashqari, talaba amaliyot davomida muntazam tarzda o’z darsi va fani bo’yicha ayrim sinfdan tashqari ish turlarini rejalashtirib boradi. Shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar rejasini mustaqil ishlab chiqadi, kundalik tarbiyaviy ishni rejalashtiradi.

Talabalarning individual ish rejasi pedagogik amaliyot rejasiga asoslangan bo’lishi va o’quv-tarbiyaviy ishlarning barcha yo’nalishlarini qamrab olishi kerak. Bular:

A) o’quvchilar shaxsi va jamoasini o’rganish;

B) o’quvchilar bilan o’quv - tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil ztish shakllarini belgilash va o’tkazish;

D) ota-onalar bilan ishlash;

E) uslubiy ishlarda ishtirok etish;

F) tarbiyasi og’ir va o’zlashtirishi past bo’lgan bolalar bilan yakkama—yakka ishlash;

G) maktab ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

H) o’zbek xalqining milliy merosi, tarixi, qadriyatlari, udumlari, urf-odatlarini keng targ’ib qilish;

3) milliy merosimizni teran o’rganish va uning yutuqlarini tarbiyaviy ish jarayonida qo’llash.

Talabalar bitiruv kursida sinf rahbarining kelgusi chorakka mo’ljallangan tarbiyaviy rejasini tuzishda ishtirok etadilar, yarim yillik ish rejasini belgilashda sinf faollariga yordam beradilar, o’z kundalik ishlarini rejalashtiradilar. Amaliyotchi o’zining qiladigan ishlarini kundalik daftariga qayd etib boradi. Kundalikda uning pedagogik amaliyot davridagi barcha ishlari o’z ifodasini topishi kerak.

## Pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy mahoratni oshirishga doir malakalar

**Malaka** - shaxsning ma`lum kasbga yaroqliligi, tayyorgarlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko’nikmalar yig’indisi. Kasbiy axborotlarning tez ko’payib borayotgani ilgari o’zlashtirilgan malakaning etishmasligini ketirib chiqaradi. Bu etishmaslik qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to’ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo’ladi. Quyida biz malaka turlari va ularning qisqacha xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

**Pedagogik malaka.** Pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi malaka pedagogik malakaga kiradi. Pedagogik faoliyat haqidagi tasavvurlar innovatsion jarayonlar natijasida doimo o’zgarib, oydinlashib boradi. Shunga ko’ra pedagogik

malakalar tarkibi ham aniqlanadi. Tizimli yondashuv klassik hisoblanadi va gnostik, konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ kabi malakalar guruhiga yo'naltiradi. Keyingi yillarda pedagogik faoliyatga pedagogik tashxis, ilmiy muammo tadqiqoti ham qo'shildi, natijada malaka tarkibining kengayishi kuzatiladi. Quyida guruhlar bo'yicha pedagogik malakaning nomlari ketiriladi.

**Didaktik malakalar.**

***Gnostik malakalar guruhi:***

- o'quvchilarning o'quv imkoniyatlarini pedagogik vositalar yordamida o'rganish malakasi, bolalarning yozma, amaliy ishlari va og'zaki javoblarini tahlil qilish, ularning o'rgatilganlik, rivojlanganlik va tarbiya darajalari, turli o'quv fanlarga, darslarda turli topshiriqlar turlariga, umuman o'qishga munosabati darajalari, alohida o'quvchilar va sinfning o'quv-tarbiyaviy jarayonda iroda, refleksiya, o'zini baholash ko'rinishlari darajalarini aniqlash;

shaxsiy pedagogik qobiliyatlarni o'rganish malakasi (diagnostik (tashxis) testlaridan foydalanish, shaxsiy pedagogik faoliyatning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash, o'zida kommunikativ va tashkilotchilik ko'nikmalarini topishga alohida e'tibor qaratish, o'zi baho bera olish);

darsni tahlil qila olish malakasi (o'zini va o'z hamkasblari darslarini tahlil qilish, tahlilning har xil turlaridan foydalanish);

o'quv jarayonida o'z harakatlarini tushuntirib berish malakasi.

***Loiihalash malakasi guruhi.***

- kelgusi faoliyat maqsadini aniqlash va shakllantirish malakasi

a) darsga nisbatan (tarbiya va rivojlantirish maqsadi);

b) darsning alohida bosqichlari va aspektlariga nisbatan (o'quv vazifalari, mustaqil ishlar va amaliy ishlar maqsadi va hokazo).

- yangi o'quv materialining mantig'i va ketma-ketligini aniqlash malakasi;

- o'quvchilarni darsda mustaqil o'quv-bilim faoliyatiga kiritish uchun savollarning mavjud variantlarini o'ylab chiqish malakasi;

- darsda avvaldan nazorat mikrobosqichlarini ko'rib chiqish malakasi;

- darsning metodik tuzilishini, bir dars uchun uning turli variantini o'ylab chiqish malakasi;

- darsda amalga oshishi mumkin bo'lgan pedagogik topshiriqlar, shuningdek, unga mos o'quv topshiriqlarini aniqlash malakasi;

- yangi materialni tushuntirishda turli yondashuvlarni qo'llashga avvaldan tayyorlanish malakasi.

***Konstruktiv malakalar guruhi:***

- tayyor o'quv ma'lumotini tanlash malakasi (matn, rasmlar, sxemalar, jadvallar, savollar, o'quv materialiga topshiriqlar);

- o'quv ma'lumotining o'z variantlarini yaratish malakasi;

- ko'rgazmali va didaktik qo'llanmalarni yaratish, ishlab chiqish malakasi;

- dars ishlanmasini ishlab chiqish malakasi;

-nazorat matnini ishlab chiqish malakasi (savollar, topshiriqlar, masalalar, misollar, mashqlar, testlar);

- tayanch ishlanmalarni tuzish malakasi (o'zi va o'quvchilar uchun).

***Tashkilotchilik malakasi guruhi:***

o'quvchilarga tartib-intizom talablarini ko'rsatmish malakasi;

- o'quvchilarga kegusi ishlar maqsadini ko'rsatish, maqsadli yo'nalish yaratish, o'quv vazifalarini qo'shish malakasi;
- o'quvchilar diqqatini taqminlash malakasi;
- o'quvchilarning mnemonik faoliyati usullarini tanlash va qo'llash malakasi;
- darsda o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashini tashkil qilish malakasi;
- darsda didaktik bahs tashkil etish malakasi;
- darsda didaktik o'yin tashkil etish va o'tkazish malakasi;
- o'quvchilarga amaliy topshiriqlar bilan bog'liq ko'rsatmalar berish malakasi;
- o'quvchilarni savollar, to'ldirishlar, tuzatishlar, tanbehlar berishga rag'batlantirish malakasi;
- o'quvchilar orasida topshiriqlarni bo'lib berish malakasi;
- topshiriqlarni bajarish uchun bolalarni guruhlarga biriktirish malakasi;
- o'quvchilar bilan birga ish rejasini tuzish malakasi;
- o'quv fani bo'yicha sayohat tashkil qilish malakasi.

***Kommunikativ malakalar guruhi:***

ma'lumot haqida xabar berish malakasi;

o'quvchi javobini eshitish malakasi;

ziddiyatlarning oldini olish malakasi;

bolalar o'rtasida o'zaro munosabatni o'rnatish malakasi;

muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish malakasi;

o'quvchilarning javoblaridagi xatolarga munosabat bildirish malakasi.

***Tadqiqiy malakalar guruhi:***

- maktab amaliyoti ilmiy muammolarini aniqlash va ularni taqriflash;
- ilmiy ma'lumot olish vositalarini tanlash yoki ishlab chiqish;
- so'rovnoma o'tkazish muhimligiga qarab farqlash;

pedagogik tadqiqot o'tkazish metodikasini ishlab chiqish va tadqiqot o'tkazish;

ilmiy adabiyot bilan ishlash (tahlil qilish, muhim ilmiy ma'lumotni topish, tezis, ishlanma, referat yozish, kartoteka, bibliografik ro'yxat tuzish);

ilmiy tadqiqotlarni muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikrni ayta olish, tanqidiy fikrlarni ayta olish va konstruktiv takliflar berish).

## 6-§. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishga doir malakalar.

**Tarbiyaviy ish malakasi.** Gnostik, konstruktiv va kommunikativ malakalar guruhi o'quv holatlarida mo'ljal olish, undan o'z ishi uchun muhim bo'lganlarini tanlash, o'quvchilarni kuzatish, ularning ichki holatini tushunish, tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida dominantning

mavjudligini va xarakterini aniqlash, o'zining jismoniy va psixik ahvolini anglash va nazorat qilish, o'z axloqini tartibga solish.

***Tarbiyaviy tashkilotchilik malakasi guruhi.*** Ish topshirish malakasi, topshiriqlarni bajarish bo'yicha nazoratni amalga oshirish, faoliyat natijalarini

baholash, unga o'zgartirishlar kirixish. Sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish tizimini hisobga olib, quyidagi malakalar ajratib ko'rsatiladi: o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari tizimini aniqlash; sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish; pedagogik holatlar xarakteriga bog'liq bo'lgan tarbiyaviy xarakterning asosiy maqsadlarini aniqlash; joriy pedagogik vazifalarni ajratib ko'rsatish, pedagogik holatlarni o'rganish va o'zgartirish, pedagogik vazifalarni aniqlashtirish, pedagogik maqsad va vazifalarni pedagogik holatlarning o'zgarishiga ko'ra qayta qurish; pedagogik vazifalarni hal qilishning uzoq va yaqin natijalarini oldindan ko'ra bilish; sinfdan tashqari ishlarning mazmuniy elementlarining optimal tizimini tanlash malakalari.

**Individuallik va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi uchun topshiriqlar:**

***1. Psixologik rivojlantirish uchun:***

"Matematik" ertak to'qing, undan darsda yoki darsdan tashqari ishlarda foydalaning. Uni qo'llash o'quv faoliyati va uning natijalarida aks etadimi?

Inshoning asl mavzusini tanlang, u o'quvchilarda fantaziya, ijodiy tasavvur uyg'otsin.

Noan'anaviy darsni ishlab chiqing. YAngi materialning (o'quv fani, mavzu xohishga ko'ra) asl tayanch chizmasini o'ylang.

Muammoli savol, muammoli topshiriq yoki vazifani yaratish uchun mumkin bo'lgan ziddiyatlarni aniqlang (o'quv materialining aniq mavzusi materialida). O'quvchilar bilan sinfdan tashqari joylarda o'tkazadigan darslar senariysini o'ylab chiqing.

Ajoyib didaktik o'yinni o'ylab chiqing. Nutq uslubidagi farqlarni aniqlash uchun pedagogik vaziyatga doir mituativ o'yinlarni ishlab chiqing. Ajoyib ko'rgazmali qo'llanma tayyorlang. Darsingiz uchun pedagogik shior o'ylab toping.

Shaxsiy ta'lim texnologiyasi g'oyasini ishlab chiqing.

Pedagogik hikoya tuzing (o'qituvchi hayotidan, maktab hayotidagi voqealar, darsdagi hodisalar va hokazo).

Matndagi topshiriqlarni bajarishda boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha topshiriq shartini diqqat bilan o'qimaganligi bois, xatolarga yo'l qo'yadi. Diqqatni oshirish maqsadida tajribali o'qituvchilar noreal, noto'g'ri savollar berilgan topshiriqlardan foydalanadilar. Shunday topshiriqni tuzing.

Sinf doskasini bezash qoidalarni tuzing. Dars ishlanmasini ishlab chiqishda o'quvchilarga murojaat qiladigan bir savolning turli xil ko'rinishlarini yozing.

***2. Pedagogik refleksiyani rivojlantirish uchun:*** pedagogik amaliyot davrida kundalikda o'zingizni tanqid qiladigan holatlarni belgilang.

Darsning fragmentini kuzating va o'qituvchi pedagogik refleksiyani amalga oshirdimi yoki yo'qmi, aniqlang. Siz buni qanday aniqladingiz? Darsda refleksiya talab qiladigan paytlar bo'ladimi?

Dars o'tkazing va uni tahlil qiling. Dars paytida o'z diqqatingizni teng bo'la oldingizmi? Isbotlang.

Dars o'tkazing va uni tahlil qiling. Dars davomida o'z malakangizni boshqara oldingizmi? Eslang, qanday vaziyatda siz yuz ifodangizni ataylab o'zgartiridingiz?

Pedagogik refleksning aniq ko'rinishlarini ayting:
a) darslarning birida;
b) tarbiyaviy tadbirlarning birida;
v) o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatda;
g) o'z sinfingiz o'qituvchisi bilan suhbatda;
d) universitet o'qituvchisi bilan suhbatda;
e) maktab amaliyoti davrida guruhdagi o'rtoqlari bilan muloqotda.

***3. Emotsional doirani rivojlantirish uchun:*** dars o'tkazish oldida qo'rquvni engishning qaysi usullaridan foydalandingiz? Kundaligingizga ushbu usul nimasi bilan foyda berganini yozing.

Dars o'tgach, qanday emotsional holatni sezganingizni ayting. O'z darsingizda:
a) o'zingizda yuqori kayfiyatni uyg'oting;
b) xafalikni ifoda etishni o'rganing. Natijalarni kundalikka yozing. Bolalar bilan muloqot sizga zavq bag'ishlashini namoyish eting.

Vaziyatlar va natijani tasvirlang.

O'quvchilarga darsdan avval va keyin kayfiyati qanday ekanligini ranglarda ko'rsatishni taklif qiling (rang diagnostikasini o'tkazing).

Yumoristik jurnallar, matnlar tanlang va kerakli vaziyatlarda ulardan foydalaning. Bolalarning munosabatini yozing.

**OTM yoki maktab o'qituvchisi tomonidan talabaning pedagogik faoliyati tavsifnomasi**

Talabaning
F.I.Sh.
______________________________________________________________

Ta'lim muassasi (maktab, AL va KHK) sinf, guruh____________________

Malaka darajalari_____________________________________________

Gnostik
______________________________________________________________

Loyihaviy_____________________________________________________

Konstruktiv
______________________________________________________________

Tashkilotchilik

Kommunikativ
______________________________________________________________

O'z-o'zini rivojlantirish natijalari:

• pedagogik fikrlash (qanday xususiyatlar namoyon bo'lganini aniq ko'rsating) _______________________________________________________

• pedagogik refleksiya_________________________________________

• pedagogik faoliyatning motivatsiyasi (aniq maqsad va istaklar ko'rsatiladi) _______________________________________________________

• emotsional doirasi __________________________________________

mamlakatimiz va chet ellardagi ijtimoiy—- siyosiy voqealarga munosabati, mehnatga o'z xohishi bilan intilishi, "Kamalak" va "Kamolot" boshlang'ich

tashkilotlarining topshirig’ini astoydil bajarishi, maktabda, ishlab chiqarish, qishloq xo’jaligi va boshqa sohadagi mehnat faoliyatlarida faol qatnashishi,

2. O’quvchilarning axloqiy-tarbiyaviy xususiyatlari: shunday sifatli darajalar aniqlanadiki, bularga Vatanga, o’zbek halqiga, uning qadriyatlariga sadoqat, farzandlik burchi, ijtimoiy mulkka g’amxo’rligi, intizomsizlikka murosasizligi kabilar kiradi.

3. O’qishga munosabati yaxshi o’qishga intilishi, o’qituvchining talablari va maslahatlarini bajarishga intilishi, o’qishning shaxsiy va jamiyatdagi o’rnini anglab olishi.

4. Madaniy ongi (bilim darajasi) o’quvchining bilimdonligi, uning madaniy qiziqish kengligi.

5. Qiziqish va mayli (layoqati)-bir o’quv faniga va darsdan tashqari mashg’ulotlarga qiziqishi, yukori sinflarda esa o’zi hohlagan kasbga mayli, layoqati.

6. O’quv materialidagi asosiy mazmun (mohiyati)ni ajrata bilishi, o’quvchi asosiy fikrini ajratishi va uni bayon qilishga intilishi, shu fikrlarni ulgumlashtirishi va xulosalashi.

7. O’quv ishini rejalashtira bilishi, insho, laboratoriya ishi, mehnat faoliyatining rejasini tuza bilish malakasining bo’lishi.

8. Sinfning yozish va yozish tezligi. Sinf bilan birga yozishga ulgurishi, bir daqiqada 120 dan ortiq so’zni o’qishi (V-VI sinflarda).

9. O’z-o’zini nazorat qilishi - o’qigan mavzusini mustaqil ravishda asosiy fikrlarni ayta berish orqali tekshirishi, darslikdagi topshiriqlar ustida ishlashi, matn bo’yicha savollar tuzishi.

### Talabaning pedagogik amaliyot davridagi ish rejasining asosiy yo’nalishlari va mazmuni.

| № | Rejalashtirilgan ishning asosiy yo’nalishlari | O’tkaziladigan tadbirning taxminiy mazmuni | Tadbirning o’tkaziladigan vaqti |
|---|---|---|---|
| 1 | O’quv yurti o’qituv-chilar jamoasi, o’quv-tarbiyaviy ishlarni rejalash-tirish va tashkil etish bilan tanishtirish. | 1. Pedagogik amaliyotga chiqish munosabati bilan tashkil etilgan uslubiy konferensiyada ishtirok etish, zarur bo’lgan uslubiy top-shiriqlarni olish. Biriktirilgan o’quv yurti, uslubshunoslar, amaliyot hujjatlarini yuritish tartibi bilan tanishish. | Amaliyotning boshlanish arafasida |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 2.O’quv yurti direktori, o’rin-bosarlari, "Bolalar", “Kamalak” va "Kamolot" boshlang’ich tashkiloti yetakchilari bilan uchrashish va tanishish. | Amaliyotning dastlabki kunida |
| | | 3. Qaysi sinflarga dars berish taqsimotida ishtirok etish, dars jadval, fan o’qituvchilari bilan tanishish, sinf rahbari sifatida ishlaydigan sinfni aniqlash. | Amaliyotning dastlabki 3 kunida |
| | | 4. Dars beradigan fan o’qituvchilari, sinf rahbarlari bilan tanishish. Sinf rahbari bilan suhbatlashish, sinf to’g’risidagi dastlabki ma’lumotlarni olish. | Amaliyotning dastlabki 4 kunida |
| | | 5. Biriktirilgan sinfdagi darslarda qatnashish va ularni tahlil qilish, o’qituvchilarning dars berish, vaqtdan unumli foydalanish tajribalarini o’rganish. | Amaliyotning dastlabki 5 kunida |
| | | 6. Fan o’qituvchilarining tajribasini o’rganish, o’qituvchilik, sinf rahbarlik faoliyatiga "kirib" borish, kasbiy ko’nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida sinflarda tashkil etilayotgan darslarni, tarbiyaviy ishlarni xolisona tahlil qilishga o’rganish. | Amaliyotning dastlabki 6 kunida |
| | | 7. Uslubshunoslar bilan birgalikda fan o’qituvchilari tomonidan tashkil etilgan ochiq darslarda ishtirok etish va ularning muhokamasida qatnashish. | Amaliyotning dastlabki ikkinchi haftasida |
| | | 8. Fan o’qituvchilarining o’quv ish rejalari bilan tanishish va o’z sinfiga oid qismlaridan ko’chirmalar tayyorlash. Ish rejasini fan bo’yicha uslubshunosga tasdiqlatish. | Amaliyotning 2 haftasi davomida |
| | | 9. Sinf faollari bilan tanishish, ular bilan suhbatlashish. | Amaliyotning dastlabki kunlarida |
| | | 10. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi va sinf qaydnomasi | Amaliyotning dastlabki |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | (jurnali) bilan tanishish. | kunlarida |
| | | 11 .Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasidan kuchirma tayerlash, uz mutaxassisligi bo'yicha o'tkazilishi kerak bo'lgan mavzularni rejaga kiritishni sinf rahbari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, pedagogika kafedrasidan belgilangan uslubshunos bilan keishib olish va tasdiqlatish. | Amaliyotning dastlabki 2 haftasining oxirida |
| | | 12. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlarni kuzatish, hisobga olish va nazorat qilish. | Doimiy |
| | | 13. O'quvchilarni dars va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida kuzatib borish, ularning faoliyatiga baho berish va qayd qilish. | Doimiy |
| | | 14. O'quv yurti va o'quvchilar hujjatlarini o'rganish, ularni yuritish, saqlash qoidalarini qayd qilish. | Amaliyotning dastlabki 3 haftasida |
| | | 15. O'quv yurti "Bolalar" va "Kamolot" tashkilotlarining ish rejalari bilan tanishish, o'zi ishtirok etadigan tadbirlarni belgilab qo'yish. | Amaliyotning dastlabki haftasida |
| | | 16. Psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish uchun tanlangan o'quvchi bilan chuqurroq tanishish, uni doimiy kuzatib borish. | Amaliyotning dastlabki kunlarida va amaliyot davomida. |
| | | 17. Sinf rahbari bilan biriktirilgan sinfida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tashkil etish uslublari to'g'risida suhbatlashish. Tarbiyaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish to'g'risida aniq maslahatlar olish. | Amaliyotning dastlabki haftasida |
| | | 18. Pedagogik amaliyot davrida o'tkaziladigan darslar, tarbiyaviy tadbirlar jadvalini tuzish va ularni uslubshunoslarga tasdiqlantirish. | Amaliyotning dastlabki haftasida |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 19. Pedagogik amaliyotga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlar, qo'llanmalar, tavsiyalar bilan muntazam tanishib borish va zarur bo'lgan ma'lumotlarni kundalik daftarga qayd qilish. | Amaliyot davomida |
| | | 20. O'quv yurtning, sinf rahbarining o'quv yurti hududida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar rejasi bilan tanishish. | Amaliyotning dastlabki haftasida |
| | | 21. Biriktirilgan sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini va tartib intizomini nazorat qilish va hisobga olish. | Doimiy |
| | | 22. O'z mutaxassisligi bo'yicha fan o'qituvchilaridan, uslubshunoslaridan, shuningdek, pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchilarndan dars va tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini, ta'sir darajasini oshirish xususida muntazam maslahatlar olib borish. | Doimiy |
| | | 23. Pedagogik amaliyot xujjatlarini o'z vaqtida talablar darajasida to'ldirib borish va uslubshunoslarga tasdiqlatish. | Doimiy |
| | | 24. Tajriba almashish maqsadida boshqa o'quv yurtlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'z kursdoshlarining o'tkazilayotgan darslariga va tarbiyaviy tadbirlariga qatnashish va fikr almashish. | Belgilangan kunda |
| | | 25. Pedagogik amaliyotni o'tishning individual rejasini tuzish va uslubshunoslarga tasdiqlatish. | Amaliyotning 1 haftasida |
| | | 26. O'tkazilishi kerak bo'lgan sinov darslari va tarbiyaviy tadbirlarining mavzularini aniqlash va uslubshunoslarga tasdiqlatish. | Amaliyotning 1 haftasi oxirida |
| | | 27. Uslubshunoslar, fan | Amaliyot |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | o'qituvchilari, sinf rahbarlaridan muntazam ravishda maslahatlar olish, qilayotgan ishlari to'g'risida ularga hisobotlar berish. | davomida |
| | | 28. Amaliyotchi talabalarning darslarini kuzatish, tahlil qilishda ishtirok etish, do'stlarcha xolisona maslahatlar berish. | Amaliyot davomida |
| | | 29. Mustaqil dars o'tish uchun tayyorgarlik ko'rish, didaktik materiallar yig'ish, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar tayyorlash, uslubiy maslahatlar olish. | Belgilangan kunlarda |
| | | 30. Mustaqil tarbiyaviy tadbir o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rish, kerakli materiallarni, adabiyotlarni yig'ish, tadbir senariysini yozish, uslubiy ko'rsatma va maslahatlar olish, mehmonlarni taklif qilish. | Belgilangan kunlarda |
| | | 31. O'quv yurti ma'muriyati tomonidan tashkil etilayotgan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish. | Amaliyot davomida |
| | | 32. Amaliyot rahbariyati, uslubshunoslar, o'quv yurti ma'muriyati tomonidan talabalarning bajarilayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlarining saviyasini oshirishga, mazmunan boyitishga, uslubiy yordam ko'rsatishga karatilgan tadbirlarda ishtirok etish va u erda bildirilgan fikrlarni muntazam qayd qilib borish. | Amaliyot davomida |
| | | 33. Dars va tarbiyaviy tadbirlar o'tkaziladigan joylarni, jihozlarni, o'quv dastgohlarini tayyorlik holatini baholash. Mashg'ulotlarni gigienik talablarga javob beradigan xonalarda o'tishini tashkil qilish. | Amaliyot davomida |

| | | | |
|---|---|---|---|
| II | Sinf rahbari sifatida o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish. | 1. Sinf o'quvchilari mustaqil olib boradigan tarbiyaviy ishlarga pedagogik rahbarlik qilish: | Amaliyot davomida |
| | | - o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etish (sinfni va o'quv yurtini ozoda saqlash, ichki tartib qoidaga rioya qilish, gulxonalardagi va sinf xonalardagi gullarga qarash...); | |
| | | - o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat faoliyatiga jalb qilish (o'quv yurti jihozlarini tayyorlash va taqmirlash, qog'oz, temir-tersak yig'ish, o'quv yurti xududini obodonlashtirish, halq hasharlarida, shanbalik va yakshanbaliklarda ishtirok | Amaliyot davomida |
| | | - o'quv yurti binosida va sinf xonasida navbatchilik qilishni yo'lga qo'yish; | Belgilangan kunlarda |
| | | -"Bolalar" va "Kamolot" a'zolarining yig'ilishini tashkil qilishda ishtirok etish; | Belgilangan kunda |
| | | - "Bolalar" va "Kamolot" tashkilotlarining faoliyatida ishtirok etish. | Amaliyot davomida |
| | | 2. O'zbek xalqining shon-shuhrati mehnat jasorati joylarini va me'morchilik obidalarini ziyorat qilish. | Belgilangan kunda |
| | | 3. Turli mavzularga oid tarbiyaviy tadbirlarni (kechalar, uchrashuvlar, munozaralar, mushoiralar, suhbatlar) tayyorlash va o'tkazish. | Amaliyot davomida |
| | | 4. Respublikamiz hududida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning ahamiyati to'g'risida "Davra stoli" suhbatini tashkil qilish. | Belgilangan kunlarda |
| | | 5. O'quvchilarni chuqurroq bilish, ularning layoqatini, u yoki bu kasbga qiziqishini o'rganish maqsadida kuzatish va anketa | Amaliyot davomida |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | so'rovini o'tkazish, so'roq anketalarini tahlil qilish, olingan natijalar asosida o'quvchilarga maslahatlar berish, zarur bo'lgan hollarda ularning kegusi rejalariga o'zgartirishlar kiritish. | |
| | | 6. Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasiga tayanish, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish. Ommaviy, guruhiy va yakkama-yakka ish shakllarini chambarchas bog'lab olib borish. | Amaliyot davomida |
| | | 7. O'quvchilar, o'qituvchilar jamoasida, ota-onalar orasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish | Amaliyot davomida |
| | | 8. "Pedagogik hamkorlik"ka keng yo'l ochish va uning g'oyalarini targ'ib qilish | Amaliyot davomida |
| III | Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar | 1. Sinfdan tashqari olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarda ishtirok etish. | Amaliyot davomida |
| | | 2. O'quv yurtida va o'quv yurtdan tashqari tarbiya muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan fan to'garaklari, klublari va tadqiqodxonalarda ishtirok etayotgan o'quvchilarning ishlari bilan tanishish va ularga ko'mak berish. | Amaliyot davomida |
| | | 3. Mustaqil ravishda sinfdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy tadbir (kecha, munozara, mushoira, uchrashuv, sayohat...) senariylarini tayyorlash va o'tkazish. | Amaliyot davomida |
| | | 4. Sinfda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan maxsus jadval asosida yakkama-yakka tartibda ishlash | Belgilangan kunlarda |
| | | 5. Tarbiyasi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash, ularning tartib-intizomini, o'zlashtirishini alohida nazorat qilib hisobga olish. | Belgilangan kunlarda |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 6. Fan xonasini jihozlash ishida ishtirok etish. | Doimiy |
| | | 7. O'quvchilar bilan birgalikda otaliq tashkilotlariga borish, ularga yordam ko'rsatish. | Amaliyot davomida |
| | | 8. O'quv yurti hududida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini taqminlash. | Belgilangan kunlarda |
| IV | Ota-onalar bilan ishlash. | 1. O'quvchilarning ota-onasi, oilaviy ahvoli, yashash sharoitlari bilan yaqindan tanishish maqsadida ularning uylariga borish. | Amaliyot davomida |
| | | 2. Ota-onalarga bolalarni to'g'ri tarbiyalash borasida uslubiy yordam ko'rsatish, ota-onalar uchun tavsiyalar tayyorlashda qatnashish. | Amaliyot davomida |
| | | 3. Milliy tarbiyaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan mavzularda ota-onalar uchun suhbat va ma'ruzalar uyushtirish. | Amaliyot davomida |
| | | 4. Sinfda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda ota-onalar ishtirokini taqminlash va ularning ko'magiga suyanish. | Amaliyot davomida |
| | | 5. Sinf ota-onalar qo'mitasi ishida ishtirok etish. | Amaliyot davomida |
| | | b. Sinf ota-onalar yig'ilishini tayyorlash va o'tkazishda faol qatnashish. Muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o'z fikrini bayon qilish, ota-onalarni qiziqtirgan savollariga javob berish. | Belgilangan kunda |
| V | Uslubiy va tadqiqot ishlarida qatnashish. | 1. Sinf rahbarlarining uslubiy seminarlarida ishtirok etish va ma'ruza qilish. | Belgilangan kunda |
| | | 2. Fan o'qituvchilari uslubiy kengashlarining ishida faol ishtirok etiyat va ma'ruza bilan chiqish. | Belgilangan kunda |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 3. Pedagogika va psixologiya kafedrasi uslubshunoslari tomonidan tashkil etilgan ilmiy-uslubiy seminar ishida ishtirok etish va tanlangan mavzu bo’yicha ma’ruza tayyorlash. | Belgilangan kunda |
| | | 4. Fan o’qituvchilari, sinf rahbarlarining ilg’or pedagogik tajribalarini o’rganish, tahlil qilish va o’z faoliyatiga joriy qilish uslublari ustida ishlash. | Amaliyot davomida |
| | | 5. Tanlangan kurs va diplom ishlari mavzusiga oid materiallarni to’plash, gipotezalarni amalda sinab ko’rish. | Amaliyot davomida |

**Amaliyotchi — talabaning haftalik ish rejasining taxminiy JADVALI**

| REJA | DUShANBA | SEShANBA | ChORShANBA |
|---|---|---|---|
| Maktab rahbarlari va o’quvchilar bilan tanishish. | Maktab direktor o’rinbosarlari, "BOLALAR" va "KAMOLOT" etakchilari bilan suhbatga qatnashish. | Biriktirilgan sinfdagi dars tahliliga qatnashish. Sinf o’qituvchisi bilan suhbat. | Boshqa sinf o’qituvchilari darsi tahlilida qatnashish. |
| Fan bo’yicha o’quv-tarbiyaviy ishlar. | Fan o’qituvchisi rejasi bilan tanishish. Sinf xonasini jihozlash va rejasi bilan tanishish. | Fan o’qituvchisi dars tahliliga qatnashish. | Fan mavzusi va mazmuni, o’quv darsliklari bilan tanishish. |
| O’quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar | Sinf o’qituvchisi bilan sinfda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar haqida suhbat. | Sinf faollari bilan suhbatlashish | "Ma’naviyat va ma’rifat” mash-g’ulotlarida qat-nashish va tahlil qilish. "KAMALAK" va "KAMOLOT" boshlang’ich tashkilotlari ken-gashida katnashish. |
| Jamoat tashkilotlarida pedagogik ishlarni tashkil etish mazmuni bilan tanishish. | Maslahat olish. | O’qituvchilarning hududlarda olib boriladigan ish rejasi bilan tanishish. | Rejani tasdiqlash. |
| Usuliy va izlanuvchanlik ishlari. | Usuliy yig’ilish, pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari. | Uslubshunos va o’qituvchilardan maslahat olish, pedagogik haftalik va kundalik tuzish. | Uslubiy yig’ilish. Pedagogik amaliyot davrida o’quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni |
| Pedagogik konsilium o’tkazishga ko’maklashish | Sinfdagi o’quvchilar tartib—intizom va o’zlashtirishini hisobga olish. | Sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasi bilan tanishish. | O’quvchilar kundaliklar ko’rib chiqish. |

| PAYShANBA | JUMA | ShANBA |
|---|---|---|
| Dars tahliliga qatnashish. Sinf faollari bilan suhbat o'tkazish. | Dars tahliliga qatnashish. Sinf tarbiyaviy ish rejasi, jurnali va etakchi rejasi bilan tanishish. | Dars tahliliga qatnashish. Shaxsiy reja tuzish va tasdiqlash. |
| Pedagogik amaliyot davrida o'tkaziladigan dars jadvalini tuzish. O'quvchilarning yozma ishlarini tekshirish | Adabiyotlar bilan tanishish (ilmiy uslubiy qo'llanma qo'shimchalari). | Ma'ruza matnini tuzish. Didaktik materiallar tayyorlash, kichik plakatlarni printerdan qog'ozga yoki slaydga chiqarish. |
| O'quvchilarni tarbiyaviy rejada ko'rsatilgan tadbirlarga tayyorlash | O'quvchilar kundaligini tekshirish. Sinf ota-onalari bilan suhbat o'tkazish uchun uylariga borish | O'quvchilarni tarbiyaviy soatda belgilangan tadbirga tayyorlash. |
| Otaliq tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish. | Pedagogik o'qishlar, ota-onalar bilan olib boriladigan suhbat mavzusiga tayyorlash. | Suhbat mavzularini tasdiqlash. |
| Seminarlar tashkil etish va qatnashish. Davlat ta'lim standartlari bilan tanishish, ularni ta'lim-tarbiya tizimiga tadbiq qilish. | Psixologiyadan maslahat. O'qituvchilarning uslubiy yig'ilishiga qatnashish. | Pedagogikadan maslahat. O'qituvchilar uslubiy yig'ilishiga qatnashish. |
| Darsdan bo'sh vaqtda o'quvchilar o'quv motivini tekshirish va tahlil qilish. | Sinf yetakchilari bilan suhbatlashish. | Pedagogik kengashga qatnashish. |

## II bo`lim. Pedagogik amaliyot davrida talabalarni mustaqil dars berishi uchun zaruriy ishlanmalar.

### 7.1. Dars va unga qo'yiladigan talablar:

Dars o'quv yurtidagi o'quv ishining tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy tarkibi (sinf) bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoani bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan tarbiyaviy va didaktik vazifalarga erishish uchun xilma-xil uslublardan foydalanadi. O'qituvchi darsni ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadiga erishish uchun uni to'g'ri rejalashtirishi va tashkil etishi lozim.

Darsni tayyorlashda va tashkil etishda didaktik, psixologik, axloqiy-etik, gigienik va texnik talablar qo'yiladi.

### 1. DARSGA QO'YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR:

Ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligini ta`minlash;

- dars yaxshi rejalashtirilgan, tayyorlangan, jihozlangan va tashkil etilgan bo'lishi kerak;
- ilmiy va uslubiy jixatdan to'g'ri tashkil etilgan dars tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ilmiy yo'nalish uchun qulay hisoblanadi, o'quv materiallarining puxta va ongli tarzda o'zlashtirishga, malaka va ko'nikmalar shakllanishiga imkon beradi;
- darsning tuzilishi ilmiy jihatdan bir maqsadga va aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak;
- darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tish chog'ida o'qitish va tarbiyalashga nisbatan zamonaviy psixologik — pedagogik va uslubiy yondashishni nazarda tutish;
- mashg'ulotlarning turli shakllarini umumsinf, guruhiy va individual qo'shib olib borish;
- dars o'tilishi shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan bog'lanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, materialni tushuntirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasini berishdan iborat bo'ladi, darsning qismlari o'zaro bog'liq bo'lishi va har biri keyingisini tayyorlash uchun asos bo'lishi kerak;
- darsda didaktik tamoyillarni to'g'ri belgilash va o'qitish usullaridan unumli foydalanish zarur;
- ko'rgazmali qurol va texnik vositalaridan unumli foydalanishni tashkil etish;
- o'quvchilarni o'quv materialini o'zlashtirishini nazorat qilish;
- darsning oldingi va keyingi o'tilgan mavzular bilan bog'lash;
- o'qituvchilar o'qish-bilish faoliyatining faolligini o'qituvchining rahbarlik (yetakchilik) roli bilan qo'shib olib borish;
- darsda o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanishi;

### 2. DARSGA QO'YILADIGAN PSIXOLOGIK TALABLAR

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish; masalan, quyi sinfda o'qituvchi ta'limiy suhbat, hikoya usullaridan keng foydalansa, yuqori sinflarda ma'ruza, seminar, muammoli o'qitish va boshqa usullardan foydalanadi;

- darsda tabaqalash tamoyiliga e'tibor berish va uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- tabaqaviy yondashuv vositalari va individual tarzda ta'sir o'tkazish usullaridan foydalanish darajasi;
- o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi orasidagi o'zaro munosabat; ta'lim jarayonida o'quvchilarning xotira, qiziqish, layoqat, moyilligiga e'tibor berish va ulardan samarali foydalanish;
- darsni tashkil etishda o'quvchining individual ish sur'ati, uning fikrlash usullaridagi o'ziga xoslikni hisobga olish.

### 3. DARSGA QO'YILADIGAN AXLOQIY-ESTETIK TALABLAR:

Axloqiy-estetik talablar asosan o'qituvchiga ta`luqli. O'quv yurti o'qituvchisi axloqiy, estetik, siyosiy bilimga, g'oyaviy, e`tiqodga, ishonchga ega bo'lishi, o'z

kasbini, o’quvchilarini va fanini sevishi, nutqiga va tashqi ko’rinishiga e`tibor berishi kerak. Bu sifatlar orqali o’qituvchi o’quvchilarni shaxsiy namunasi bilan tarbiyalaydi.

### *4. DARSGA QO’YILADIGAN GIGIENIK TALABLAR:*

Darsda muayyan gigienik-sanitariya holat talab qilinadi: sinf xonasining yorug’ligi, o’quv qurollarining, jihozlarning o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keishi, uni estetik jihozlash, ko’rgazmali qurollardan foydalanish (jadvallar, rasmlar, diapozitiv, kinofilm) va h.k.

### *5. DARSGA QO’YILADIGAN TEXNIK TALABLAR*

Texnika xavfsizligiga rioya qilish, yong’inga qarshi chora tadbirlarni ko’rish, o’quvchilarning mehnatini muhofaza qilish.

### *7. 3. O’qituvchining (talabaning) darsga tayyorgarlik ko’rishining asosiy bosqichlari:*

Mavzu bo’yicha dars tizimini ishlab chiqish;

darsning umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

darsning yetakchi g’oyasini ajratish. Ular mazmunini ochish uchun aniq materiallar yig’ish;

o’quv materialining mazmunini fanlar aloqasini aniqlash va bog’liqlik aloqasini o’rnatish, O’quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlaridan rejalashtirilgan darsda qay darajada foydalanish mumkinligini aniqlash;

ko’rgazmali qurollar va texnik vositalarqi tanlash: kino, diafilm, diapozitiv va h.k.

o’qitishning usullarini, vositalarini, uslubiy yo’nalishini aniqlash (ma’lum dars uchun).

o’quvchilarning o’quv-bilim faoliyatlarini, imkon yo’llarini, samaradorligini oshirish yo’llarini belgilash;

dars tuzilishini ishlab chiqish, vaqtga muvofiq darsni mantiqiy qismlarga ajratish;

darsning ayrim bosqichlari uchun tarqatma-didaktik materiallarni tayyorlash;

o’quv materiallarini dars davomida va dars so’ngida mustahkamlash uslublarini ishlab chiqish;

o’quvchilar bilimini hisobga olish va uni nazorat qilish uslubini ishlab chiqish, o’quvchilardan qay biri ma’lum dars nazorati ostida bo’lishi lozimligini belgilash;

mavzu bo’yicha sinfdan tashqari ishlar hajmini aniqlash;

uyga berilgan vazifa ustida ishlash, uning mazmunini, hajmini aniqlash, uy ishlarini o’quvchilarning bevosita kuzatishlari va taassurotlari bilan bog’lashga intilish;

uy vazifasini qanday bajarish haqida tavsiyalar tayyorlash.

## Dars tiplari

Har qanday dars o’ziga xos xususiyatga ega bo’lib, u o`zining aniq maqsadi, vazifalari va mazmuniga ko’ra bir-biridan farq qiladi. Bir soatlik darsga mo’ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilishga mo’ljallangan, didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg’ulot tipi - dars tipi deyiladi.

Hozirgi zamon ta’lim tizimida ko’p qo’llaniladigan dars tiplari quyidagilardan iborat:

1. Aralash dars.
2. YAngi bilimlarni bayon qilish darsi.
3. Bilim, ko’nikma, malakalarni hosil qilish va mustahkamlash darsi.
4. Umumlashtiruvchi yoki takrorlash darsi.
5. O’quvchilar bilimini nazorat qilish darsi.

**Dars tiplarining qisqacha tavsifnomasi:**

**Aralash dars** - bunda ish olib borishning har xil turlari tushuntirish, mustahkamlash, tekshirish, yakun yasash uyg’unlashgan bo’ladi.

**Yangi bilimlarni bayon qilish darsi -** bunda asosiy e’tibor yangi materialni o’rganishga jalb qilinadi.

**Bilim, ko’nikma, malakalarni hosil qilish va mustahkamlash darsi -** bunda amaliy faoliyatga, ko’proq mashqlarga e’tibor qaratiladi.

**Umumlashtiruvchi yoki takrorlash darsi -** bunda muayyan mavzular va bilimlar bo’yicha o’rganilgai material tizimga solinadi.

**O’quvchilar bilimini nazorat qilish, tekshirish va baholash darsida -** o’quvchilar turli xildagi sinov va nazorat, og’zaki va yozma ishlarni bajaradilar. Bu darslarda keyingi paytlarda ommalashgan testlash usuli va reyting tizimi keng qo’llaniladi.

**Sinfdan tashqari o’qish darsida -** bolalarda o’qishga, adabiyotga qiziqish va muhabbat uyg’otish ko’zda tutiladi.

### 7.3. *O’qituvchining (talabaning) darsga tayyorgarlik ko’rishining asosiy bosqichlari:*

– mavzu bo’yicha dars tizimini ishlab chiqish;

– darsning umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

– darsning yetakchi g’oyasini ajratish. Ular mazmunini ochish uchun aniq materiallar yig’ish;

– o’quv materialining mazmuni fanlar aloqasini aniqlash va bog’liqlik aloqasini o’rnatish, O’quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlaridan rejalashtirilgan darsda qay darajada foydalanish mumkinligini aniqlash;

– ko’rgazmali qurollar va texnik vositalarni tanlash: kino, diafilm, diapozitiv va h.k.

– o’qitishning usullarini, vositalarini, uslubiy yo’nalishini aniqlash (ma’lum dars uchun).

– o’quvchilarning o’quv-bilim faoliyatlarini, imkon yo’llarini, samaradorligini oshirish yo’llarini belgilash;

– dars tuzilishini ishlab chiqish, vaqtga muvofiq darsni mantiqiy qismlarga ajratish;

– darsning ayrim bosqichlari uchun tarqatma-didaktik materiallarni tayyorlash;

– o’quv materiallarini dars davomida va dars so’ngida mustahkamlash uslublarini ishlab chiqish;

– o’quvchilar bilimini hisobga olish va uni nazorat qilish uslubini ishlab

chiqish, o’quvchilardan qay biri ma’lum dars nazorati ostida bo’lishi lozimligini belgilash;

– mavzu bo’yicha sinfdan tashqari ishlar hajmini aniqlash;

– uyga berilgan vazifa ustida ishlash, uning mazmunini, hajmini aniqlash, uy ishlarini o’quvchilarning bevosita kuzatishlari va taassurotlari bilan bog’lashga intilish;

– uy vazifasini qanday bajarish haqida tavsiyalar tayyorlash.

## AMALIYOTChI-TALABA TOMONIDAN SINOV DARSLARINI REJALAShTIRISh VA O'TKAZISh

### *1.Sinov darslarni rejalashtirish:*

1.Amaliyot boshida o'tkazilishi belgilangan sinov darslarining jadvali tuziladi.

2.Darsning senariysi va rejasi o'qituvchi tomonidan tuziladi hamda kafedraning (fan uyushmasining) e'tiboriga havola qilinadi.

3.Dars rejasini tuzishda darslarning barcha turlarida samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini jadallashtirish vositalariga ahamiyat berish talab etiladi.

4. Dars mavzusi muallif tomonidan belgilanadi va o'quv adabiyotlarida kam yoritilgan yoki o'zlashtiriishi qiyin bo'lgan mavzularga ko'prok e'tibor qaratish tavsiya qilinadi.

5.Dars jadvalini tuzishda unga bilim reytingi har xil pag'onadagi guruhlarni kiritish, darsdan so'ng 2-3 kun o'tgach o'quvchilarning shu darsdan olgan bilim-ko'nikmasini aniqlash uchun sinov o'tkaziladi. Sinov natijalaridan sinov darsning yakuniy muhokamasida foydalaniladi.

### *2.Sinov darsga qo'yiladigan talablar:*

1.Dars ta'lim-tarbiya, intelektual rivojlanish, jismoniy va ruhiy barqarorlanish jarayonining tashkiliy qismlaridan biri bo'lishi kerak.

2.Dars senariysida darsning ilmiy saloxiyati, ilmiy asoslanganligi, yoritilayotgan mavzuning aniqligi, ilm-fan rivojining o'rni, mavzu bo'yicha ilmiy muammolar borligi aks ettirilishi lozim.

3.Darsning uslubiy optimalligiga, o'qitishning texnikaviy vositalarini to'g'ri tanlanishiga alohida ahamiyat berish kerak.

4.Dars shakillaridan qat'iy nazar, asosiy maqsad o'quvchini mustaqil fikrlash va mustaqil tahsil olishga yo'llash o'quv jarayonining asosiy omili ekanligini kuzda tutish zarur.

5.Dars o'qituvchining o'quv jarayonidagi ilmiyo-uslubiy izlanishlari natijasi bo'lib, uning tahliliy mexnati natijasi ekanligini kursatish lozim.

### *Sinov darsni tayyorlash.*

1.Amaliyotchi-talaba darsga tayyorlanishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

-dars vaqtini unumli rejalashtirish;

-manbalarni chuqur o'rganish;

-shu darsdagi guruh o'quvchilarining o'zlariga xos imkoniyatlarini hisobga olish (dars mavzusini tushuntirish uchun avval olgan bilimlarning ko'nikma darajasini belgilash);

-iqtidorli yoshlarga maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejida chuqur ta'lim berish talablariga javob berish.

2. Dars mvzusini shunday tanlash kerakki, u o'qituvchining pedagogik mahoratini, uslubiy bilimini va dars o'tish vositalarini aniq ko'rsatsin.

3. Darsga tayyorlanish davrida o'qituvchi ilmiy-uslubiy izlanishi, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarining zamonaviy manbalaridan foydalanishi kerak. Bu o'quvchilarda tahsil olishga qiziqish uyg'otib, zamonaviy yutuqlardan boxabar bo'lish imkoniyatini yaratadi.

4.Dars senariysida, belgilangan vaqt davomida o'qituvchi va o'quvchini nima qilishi kerakligi aniq kursatilishi lozim.

5.Darsning moddiy-texnikaviy taqminotini ilgaridan tayyorlash, barcha kurgazma va namoish vositalaridan foydalanish ketma-ketligini avvaldan rejalashtirish kerak.

6.Kafedralar sinov darsga tayyorlanish vaqtida, muallifga texnikaviy, uslubiy, ashyoviy va tahliliy yordam berishi kerak.

### *4.Sinov darsning uslubiy taqdimoti.*

1.Darsning uslubiy majmuasi quyidagilardan iborat:

-fanning taqvim-mavzu rejasi;

-ma'ruza matni yoki mashg'ulot (Laboratoriya, amaliyot, mustaqilish) ning rejasi;

-dars senariysi;

-dars senariysida ko'rsatilgan didaktik, ko'rgazma materiallar va boshqa texnikaviy vositalar;

-nazorat ishi uchun savollar to'plami;

-uy vazifasi savollari yoki masalalari to'plamlari;

-o'z-o'zini nazorat qilish savollari;

-uslubiy majmuaning tarkibi dars turi bilan bog'liq holda tanlanadi.

2.Darsning uslubiy maqsad quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

-amaliy darslarda kompyuter texnikasidan foydalanish;

-ta'limiy-tarbiyaviy jarayondagi muammoli tahsilning o'rni;

-yangi mavzuni o'zlashtirishda texnikaviy vositalardan foydalanishning o'rni;

-fanlararo bog'liqlik, bo'limni sinovdan o'tkazish;

-o'quvchining mustaqil ishlashini tashkil etish;

-o'quvchilarning o'zlashtirish jadallashtirish;

-o'quvchining ko'rsatma va didaktik manbalar bilan ishlashini optimallashtirish va hokazo.

3.Darsning uslubiy qo'llanmasi sinov dars muhokamasida ko'rsatilgan ijobiy takliflar bilan boyitilgan holda qayta ishlab chiqiladi, ta'lim muassasisi ulubiy kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng ommalashtirishga tavsiya qilinadi.

### *5.Sinov darsni o'tkazish.*

1.Dars, barcha darslar doimiy ishchi sharoitda o'tkaziladi.

2.Darsga tashrif buyuruvchilar o'qituvchi va o'quvchilarga halaqit qilmasligi uchun o'z o'rnilarini avvalroq egallaydilar.

3.Darsga tashrif buyurgan shaxslar dars vaqtida va o'quvchilar oldida hech narsaga aralashmaydilar va darsga halal bermasdan o'qituvchi xamda o'quvchining harakatlarini o'rganib o'tiradilar.

4.Darsga tashrif buyurganlar muallifning oldiga qo'ygan maqsadiga qanday erishishini diqqat bilan kuzatadilar va o'z fikrlarini tashrif varaqalarida qayd qilib boradilar.

5.Dars o'tkazilgan kuni darsni tahlil qiluvchilar o'z fikrlarini o'zaro muhokama qilib, qaror bayonnomasini tayyorlaydilar.

6.Darsdan so'ng 2-3 kun o'tgach dars mavzusi bo'yicha o'quvchilarning bilim (ko'nikma)darajasi sinov orqali aniqlanadi.

***6.Sinov darsining muhokamasi va tahlili.***

1.Darsning tahlili unda qatnashgan o'quvchilarning bilim darajasi aniqlangandan so`ng o`tkaziladi.

2.Darsning tahlili kafedrada ta'lim muassasi ma`muriyati ishtirokida o`tkaziladi.

3.Muhokamaning maqsadi darsning to'g'ri o`tkazilganligini baholash, tanlangan uslub va vositalarning muvofiqligini aniqlash, muallifga u tanlangan ayrim uslub va vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatish.

4.Muhokama quyidagi tarkibda o'tkazilishi tavsiya qilinadi:

-dars olib borgan o'qituvchi;

-dars tahlilida ishtirok etgan o'qituvchilar;

-kafedra a'zolari;

-ta'lim muassasasi ma'muriyati, o'quv va uslubiy ishlar bo'yicha mas'ul xodimlar.

5.Muhokama ishtirokchilari to`liq fikrga ega bo'lishi uchun dars muallifiga birinchi so'z beriladi. Muallif darsning maqsadi va unga erishish uchun qo`lllangan uslub va foydalanilag vositalar haqida aniq ma'lumot beradi.

6.Muhokamada so'zga chiquvchilar darsning barcha yutuq va kamchiliklarini to`liq ochib berishlari lozim. Muhokamada darsda erishilgan yutuq, qo'llanilgan uslublarning samaradorligiga, jihoz va texnikaviy vositalardan foydalanish darajasiga alohida e`tibor qaratilishi zarur. Muallifning kelgusidagi ishida yordam berish uchun barcha yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ortiqcha harakatlar aniq ko'rsatilishi kerak.

7.Muhokama so`nggida kafedra mudiri muhokama qilingan majmuani amalga joriy etishi haqida fikr va taklif berishi kerak.

8.Muhokamada so'zga chiqqanlar, tahlil qilingan uslubiy majmuaning tarbiyaviy tomonini, o'qvchilarda mustaqil ishlash qobilyatlarini rivojlantirishga ta'sirini, ular orqali kelgusida mutaxassisga kerak bo'lgan sifatlarni shakllantirishdagi urni haqida fikr bildirishlari kerak.

9.Muhokama oqilona va do'stona vaziyatda, fikr almashish, bahslashish sharoitida o'tishi lozim.

10.Muhokama oxirida muallifga yana so'z berildadi.

***7. Sinov dars natijalarini o'quv jarayoniga joriy etish.***

1.Kafedraning taklifiga binoan sinov dars tahlili natijasi o'quv jarayoniga joriy etilishi kerak bo'lgan ilg'or pedagogik tajriba hisoblanadi.

2.Darsning uslubiy majmuasini keng joriy etish uchun uning barcha manbalari(senariy, texnikaviy vositalar, ma'ruzalar matni va hokazo)o'qituvchilar o'rtasida ommalashtiriladi.

3.Darsda qatnashgan o'qituvchilar varaqada to'ldrilgan sinov dars tahlilini o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga topshiradilar.

4.Dars bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash, taklif va xulosalarning tahlili ilg'or pedagogik tajriba tatbiklariga kiritiladi.

5.Ta'lim muassasasi pedagogik kengashida sinov dars natijalari kengash a'zolariga yetkaziladi. Pedagogik kengash qaroriga ilg'or pedagogik tajribalaridan foydalanish to'g'risida aniq taklif va tavsiyalar kiritiladi.

6.Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish uslublarining yangi, ilg'or shakllari amalda qo'llab-quvvatlanishi kerak.

**8. Bir soatlik dars rejasining namunasi.**

Sana: ___________________ Sinf__________Fan______________________

Darsga qatnashayotgan o'quvchilar soni:_________________________________

Fan o'qituvchisining ismi, sharifi:__________________________________

Dars mavzusi:______________________________________________________

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy:______________________________________

b) tarbiyaviy:_____________________________________

d) rivojlantiruvchi:______________________________

Darsda qo'llaniladigan uslublar:____________________________________

Darsning turi: ____________________________________________________

Darsning jihozi:___________________________________________________

**Aralash dars turining tuzilishi quyidagicha:**

Dars o'tkazish tartibi:

-tashkiliy bosqich;

-o'tgan mavzuni so'rash va baholash;

-uy ishini tekshirish va baholash;

-yangi mavzuning bayoni;

-o'tilgan mavzuni mustahkamlash;

-darsni xulosalash;

-uyga vazifa topishirish;

-o'quvchilar bilimini baholash va izlash;

-foydalanish kerak bo'lgan adabiyotlar ro'yxati;

Darsda o'quvchilar bilimini baxolashni barcha boskichlarda kullash mumkin.

***DARSNI TAHLIL QILISh TURLARI VA ULARNING QISQAChA TAVSIFNOMASI.***

Dars tahlili o'quv — tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni yuksak darajaga ko'tarishga qaratilgan faoliyatdir.

**DARS TAHLILINING TIPLARI:**

To'la tahlil o'vuv-tarbiya jarayonini tashkil qilish sifatini nazorat qilish va o'qituvchining ish uslubini o'rganish maqsadida o'tkaziladi.

qisqa tahlil — uning sifatini umumiy baholash maqsadida o'tkaziladi. Faqat asosiy didaktik kategoriyalarni (darsda asosiy maqsadlarning amalga oshirilganligi, barcha bilish topshiriqlarning bajarilganligi, rejaning bajarilganligi) nazarda tutadi.

Kompleks tahlil — darsning maqsadi, uslubi, mazmuni, uni tashkil qilish

shakllarining har tomonlama birlikda va o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Aspektli tahlil — dars tahlilining biror bir to'rini mo'ljallaydi. Bu asosan nuqsonlarni aniqlash yoki o'qituvchi faoliyatining ilg'or pedagogik usullarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

## *DARS TAHLILINING TURLARI.*

Dars tahlilining turlarini quyidagi to'rt guruhga bo'dish mumkin; ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik (ta'limiy) tahlil, umumpedagogik tahlil.

### *ILMIY TAHLIL.*

Ilmiy tahlil berilayotgan bilimlarning ilmiy — nazariy jihatini, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning esa maqsadga yo'nalishi jihatidan to'g'riligini aniqlash demakdir. Darsning ilmiy tahlilida asosan quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi:

a) qoida va ta`riflarning to'g'ri bayon etilishi;

b) mavzuga nisbatan o'qituvchining ilmiy va ijodiy yondashishi;

v) o'qituvchi va o'quvchining nutq madaniyati;

g) darslik materiallarini qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitish va o'quvchi bajarayotgan mustaqil laboratoriya ishlarining maqsadga muvofiq yo'nalishi;

d) o'quvchi xulosasini ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa va mukammal bayon etilishining nazorat qilinishi;

e) o'quv fanining o'ziga hos xususiyatlari;

Darsni ilmiy tahlil etishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyati chuqur o'rganilmog'i zarur. qoida va taqriflarning to'g'ri bayon etilishi va mavzuga ilmiy yondashish bir-biridan ajralmagan holda tahlil qilinishi kerak, ular bir-birini to'ldiradi. Ilmiy tushuncha, qoida, taqrif, nazariy bilimlar, malaka va ko'nikmalarga o'quvchilar tomonidan berilgan javoblar, o'quvchilar faolligi ham tahlilda aks etishi lozim.

Qoida, taqriflarning to'g'ri bayon etilishi ko'p jihatdan o'qituvchi nutqining ravonligiga, talaffuzidagi aniqligiga bog'liqdir.

### *METODIK TAHLIL.*

Darsda o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi ta'limning turiga qarab belgilanadi. O'quv materialini o'quvchilarga tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarning shu materialga mosligi yoki mos emasligi uslubiy tahlil davomida aniqlanadi. Dars usullarini tahlil qilishda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

1. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining tashkiliy shakllariga ko'ra:

a) hikoya usuli (o'qituvchining o'quv materialini bayon etishi ko'rinishida);

b) suhbat usuli.

2. O'quvchilarning o'zlashtirishi darajasiga ko'ra:

a) o'qituvchining so'zlash usuli;

b) darslik bilash ishlash usuli;

v) ko'rgazmali qurollardan foydalanish usuli.

U yoki bu fanning o'qitilishi uslubiy jihatdan tahlil etilganda, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi masalalar e'tiborda bo'lishi lozim;

a) ta'limning maqsadi;

b) ta'limning mazmuni;

v) ta'limni tashkil etish shakllari;

g) ta'lim manbalari;

d) ta'lim usullari.

Darsni tahlil qilish jarayonida uslubshunos uslubiy amallarga e'tibor berishi kerak:

1. Tushuntirishning sodda va ommaviyligi.

2. O'quvchilar tushuntirishlarining qulay, oson bo'lishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish.

3. Darslik materialini boyituvchi qo'shimcha materiallarni o'quvchi yoshiga mukammal o'tkazish.

3. Mustaqil ishlarning o'quvchi yoshi va qobiliyatiga mos bo'lishiga erishish va boshqalar.

### *DIDAKTIK (TA'LIMIY) TAHLIL.*

Didaktik tahlil — ta'lim turlari samaradorligi va uni begilovchi qonunlarni darsda qanchalik to'g'ri va mukammal bajarilganligini tahlil qilish demakdir.

Didaktik tahlil dars jarayonida o'qituvchining ta'lim tamoyillarini qay darajada tadbiq etayotganligiga va quyidagi pedagogik talablarga qaratilishi lozim:

a) o'qituvchi bayonining sinf jamoasiga to'la tushunarli (ommabop) bo'lishi;

b) bildirilayotgan fikrning g'oyaviy jihatdan milliy tarbiya talablariga mos tushishi;

v) o'quv materialining barcha o'quvchilar tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishi;

g) ko'rsatmali qurollardan, texnika vositalaridan to'g'ri foydalanish darajasi;

d) sayohat, tajriba, laboratoriya ishlarining ko'zlangan maqsadga yo'naltirilgan holda o'tishiga erishish;

e) darslik bilan ishlashning to'g'ri bo'lishi;

j) ketirilayotgan misollarda, dalillarda ta'limiy — tarbiyaviy maqsadlarning birligi va boshqalar.

### *UMUMIY PEDAGOGIK TAHLIL.*

Umumiy pedagogik tahlil — darsdagi hamma jihatlarning qisqa va engil ko'rinishdagi tahlildir.

O'qituvchi darsiga kirishdan oldin yoki darsi kuzatilgach, uning sinf qaydnomasini yuritish, o'quvchilarning daftarlarini tekshirib borishning ahvoli, ota-onalar bilan olib borilgan ishlari kabi barcha faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni, tahlil etilgan darsdagi yutuq, kamchiliklar bilan teng ko'rsatib o'tish foydalidir.

Darsni umumpedagogik jihatdan tahlil qilganda, quyidagilar hisobga olinadi:

1. Dars jihozlari;

2. Sinf xonasining tayyorlik holati;

3. Dars bosqichlaridan to'g'ri foydalanish;

4. O’qituvchining pedagogik — psixologik jihatdan namunali shaxs darajasiga ko’tarila olishi;

5. O’quvchi bilimiga qo’yiladigan bahoning xolisona, izohli bo’lishi;

6. O’quvchilar intizomi;

7. Tashqi muhit, ish sharoiti;

8. Partalarni o’quvchilar gavdasiga mosligi;

9. O’qituvchining o’quvchiga bergan savollari;

10. O’quvchining o’qituvchiga bergan savollari;

Umumiy pedagogik tahlil sohasidagi tajribalardan keib chiqib, quyidagi maslahatlarni doimo yodda tutmoq kerak:

1. Berilgan savolga darrov javob ayta olmaydigan o’quvchi uchun bir oz qo’shimcha vaqt berilishi lozim.

2. Javobni boshlashda qiynalgan o’quvchiga o’qituvchining yordam berib yuborishi o’rinlidir.

3. O’quvchi bilimiga qo’yilgan bahoni albatta sharhlash kerak.

4. Muomala va muloqotda ehtiyotkor bo’lish lozim.

***O’Z DARSINI O’ZI TAHLIL QILISh.***
***( A U D O T A H L I L ).***

Darslar faqat o’zgalar tomonidan tahlil qilinibgina qolmay, ular dars olib borgan o’qituvchining o’zi tomonidan ham tahlil qilinishi mumkin.

Kamchiliklarni tugatish, o’z darsini qayta ko’rish maqsadida o’qituvchi darsdan chiqgach, dars jarayonini to’la eslashga harakat etadi. Har bir dars bosqichida bajarilgan ishlar, qo’llanilgan usullarni tahlil qiladi, ularni nimalar bilan to’ldirish kerakligini aniqlaydi.

O’z darsini o’zi tahlil qilish davomida erishilgan yutuqlarini yaqqol ko’rish va yo’l qo’yilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ilg’or tajribali o’qituvchi darslariga kirib, o’z darslari bilan taqqoslash.

***O’QITUVChINING O’Z DARSINI O’ZI TAHLIL QILIShNI AMALGA OShIRISh NAMUNASI.***

O’qituvchining o’z darsini o’zi tahlili — bu juda murakkab ichki jarayon bo’lib, fikran amalga oshiriladi. O’qituvchi o’z-o’zini tahlil qilganda, fikran o’z darsini qism-qismga bo’lib, o’z fikriy taqrizidan o’tkazadi. Bunday qilinishining maqsadi o’tkazilgan darsni zamon pedagogika, psixologiya, uslubiy va ilg’or pedagogik tajribalar talabiga javob berishini aniqlash va shu jihatdan o’z darsiga baho berishdir.

Shu asosda o’qituvchi o’z darsi yutuq va kamchiliklarini aniqlab, pedagogik mahoratini takomillashtirish rejasini tuzishi lozim. O’z-o’zini tahlil qilish uchun o’qituvchi quyidagi savollarga javob topishi kerak:

1. Darsni rejalashtirganda o’quvchini o’rganish natijalari va ularning o’quv imkoniyatlari hisobga olinadimi?

2. Hozirgi o’tilgan mavzuni o’tgan mavzu bilan bog’lash va keasi dars uchun zamin tayyorlaydimi? O’tilgan darsni boshqa darslar turkumida to’tgan o’rni?

3. Darsni uchchala didaktik (ta’limiy, tarbiyaviy, o’quvchi shaxsini o’stirish) maqsadlari amalga oshiriladimi? Ularning yaxlitligiga erishildimi ?

4. Darsning tuzilishi o’quv materialining mazmuiiga, echiladigan o’quv

topshiriqlari xarakteriga mos keadimi? Darsning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish to'g'ri amalga oshiriladimi? Darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanildimi?

5. Darsning asosiy mohiyati, begilovchi g'oyalar ta'kidlandimi?

6. Darsga tanlangan usul, vosita, printsiplar yangi o'quv materialini mazmuniga to'g'ri keadimi? O'qitishning hozirgi zamon vositalaridan unumli foydalaniladimi?

7. Darsga o'quvchilarga yakka va tabaqalashtirilgai holda yondoshildimi ?

8. O'quvchining darsda bilim, ko'nikma, malakalarini egallashlarini nazorat qilish qanday tashkil etiddi? Ularga qo'yilgan baholar tarbiyalovchi xarakterga ega bo'lib, o'qish faoliyatini rag'batlantiradimi?

9. Darsda o'quvchining biluv faoliyatini o'stirishga va unda o'qishga istakni shakllantirishga e'tibor berildimi?

10. Darsda o'quv anjomlaridan, ko'rgazmali qurollardan foydalanish qay tarzda amalga oshirildi?

11. Darsdagi ruxiy muxit, o'quvchilar va o'qituvchining o'zaro munosabatlari qanday?

12. Uy topshiriqlarini tekshirish metodikasi qay tarzda amalga oshirildi?

13. Darsda qanday qiyinchilikga duch keindi, ularning sabablari va qaysi yo'llar bilan bartaraf qilish mumkin?

14. Mazkur dars maqsadi va vazifasini amalga oshirish uchun o'qituvchining bilim malakasi yetarlimi? O'z bilimini qaysi yo'nalishda yana chuqurlashtirish zarurligini anglash? O'z-o'zini tahlil (audotahlil)ni o'qituvchi darsning fikriy nusxasini uning amaldagisi bilan solishtirib, shu asosda umumiy saviyasini, ilmiy nazariyasini, psixologik, pedagogik, uslubiy mahoratini yanada takomillashtirish yo'llarini belgilab olishi lozim.

10.1. Dars tahliliga kiruvchilar uchun qo'yiladigan pedagogik talablar

YODINGIZDA BO'LSIN: dars tahlili o'qituvchi (talaba)ning kasbiy malaka va ko'nikmalarini qay darajada shakllanganligi darajasini, yutuq va kamchiliklarini qayd etish, dars berish tajribasini o'rganish, unga uslubiy maslahatlar berish maqsadida o'tkaziladi.

ESINGIZDA TUTING: tahlil davomida o'qituvchi (talaba)ning shaxsiyatiga tegishga, obro'sini to'kishga, kamsitishga, kamchiliklarini bo'rttirib qo'rsatishga, darsga aloqasi bo'lmagan masalalarni muhokama qilishga yo'l qo'yilmasligi kerak.

***QUYIDAGILAR DOIMO DIQQAT MARKAZINGIZDA BO'LSIN:***

1. Darsga kirilishi rejalashtirilgan o'qituvchi (talaba) bu haqda oldinroq ogohlantirishi kerak;

2. Darsni tahlil qilish uchun sinf xonasiga fan o'qituvchisi (talaba) bilan birgalikda kiradi;

3. Dars jarayonida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik lozim:

— dars nihoyasiga yetgunga qadar sabr-toqatlik bo'lish va dars tugamasdan turib sinf xonadan chiqib ketish;

— dars davomida o'rnidan turib yurish va o'quvchilarning daftarini tekshirish;

— o'qituvchi, o'quvchi va boshqalarga turli xil ishoralar qilish;

— dars tahlilida ishtirok etayotganlar bilan baland ovozda gaplashish, u yoki bu

vaziyatni muhokama qilish;

— dars davomida tahlil ishtirokchilarining savollariga javob berish;

